# Uzbekistan Airways

inflight magazine

01 | (114) | 2023 | Summer



## Uzbekistan Airways Airbus qanotlarida parvozlarning 30 yilligini nishonlamoqda

**Uzbekistan Airways Celebrates 30 Years of Flying on Airbus Wings**


IPOTEKA BANK
Imkoniyat yaratamiz!
Vaqti kelgan orzularingizni to‘xtatmang!
IPOTEKA-BANKDAN
qulay shartlarda
AVTOKREDIT
21,9 % dan
60 oygacha
Xizmat jismoniy va yuridik shaxslar uchun amal qiladi!
KIA, RENAULT, CHERY avtomobillari uchun:
jismoniy shaxslarga - 5% dan
yuridik shaxslarga - 0% dan
1233
www.ipotekabank.uz

# MUNDARIJA
## CONTENT


**Aviayangiliklar** 09
Airnews

**Hamkorlikning ilk bosqichidagi yutuqlar: Uzbekistan Airways Airbus qanotlarida parvozlarning 30 yilligini nishonlamoqda** 11
Together Since the Beginning: Uzbekistan Airways Celebrates 30 Years of Flying on Airbus Wings

**Uzbekistan Airways 31 yoshda** 22
Uzbekistan Airways is 31 Years Old

**Mahobatli Darband - vaqt to'xtagan joy** 38
Mighty Darband - A Place Where Time Stands Still

**Mashhur o'zbek kino va estrada yulduzlari qanday buyumlarsiz sayohatga bora olmasligi haqida aytib berishdi** 49
Popular Uzbek Movie Stars and Singers Tell What They Cannot Travel Without

**"Hayotimdagi eng ajoyib sayohat": 45 mamlakatda bo'lgan germaniyalik qiz O'zbekistondagi sayohati haqida** 55
"The Best Trip of My Life": A German Girl Who Has Visited 45 Countries Shares Her Travel Story about Uzbekistan

**Sofi Ibbotson, Timur Bekmambetov va O'zbekistonning xorijdagi boshqa turizm elchilari** 66
Sophie Ibbotson, Timur Bekmambetov and Other Tourism Ambassadors of Uzbekistan

**Oddiy xalqni himoya qilgan 40 nafar dovyurak qizlar haqidagi afsona** 72
The Legend of the 40 Courageous Girls Who Defended the Common People

**Sevara Nazarxonning Toshkentdagi sevimli maskanlari** 82
Sevara Nazarkhan's Favorite Places in Tashkent

**O'zbekistondagi go'zallikka boy 5 sirli manzilgoh** 90
Five Mysterious and Beautiful Places of Uzbekistan

**Tax Free: sayyohlar O'zbekistonda amalga oshirilgan xaridlaridan QQSni qanday qaytarishlari mumkin** 106
Tax Free: How Tourists Can Get a VAT Refund on Goods Purchased in Uzbekistan

**Yo'lovchilar hikoyalari** 110
Stories of Passengers

**Kichkintoylar uchun. Bolalar sayyorasi** 116
For kids. Kids' planet

**Farzandingizga qiyin o'smirlik davridan o'tishga qanday yordam bera olasiz?** 118
How Can You Help Teenagers During a Difficult Period of Adolescence?

**Test: Oilaviy tarbiya uslubingiz qanday?** 122
The Test: What is Your Parenting Style?

**Uzbekistan Airways'ning yangi yo'nalishlari: keyingi sayohatni qayerga rejalashtirish mumkin** 124
Uzbekistan Airways' New Routes: Where to Plan Your Next Trip?

**Yo'lovchilar uchun ma'lumotlar** 130
Information for Passengers

UZBEKISTAN airways

## Bort jurnali tahririyati
## Editorial Board

Tahririyat kengashi raisi
Chairman of the Editorial Board
Shuxrat Xudaykulov

Nashr uchun mas'ul
Executive Editor
Sultana-begim Maxmud-zade

Dizayn va sahifalovchi
Design & Layout
Barno Alibaeva

Maqola mualliflari
Contributing Writers
Matluba Kuliyeva
Karomat G'afforova
Gulnora Xamrayeva
Abror Abduvaitov
Beatriz Matafora

Foto
Photo
Abdulaziz Xalilov
Beatriz Matafora
Baxtiyor Valiev (Isfandiyor)
Muzaffar Yusupov

Musahhihlar, o'zbek tili
Proofreaders, Uzbek Language
Ozoda Azimova
Jamoliddin Hamdamov
Abror Abduvaitov

Musahhih, ingliz tili
Proofreader, English Language
Mark A Stam

Reklama menejeri
Ads Manager
Bahodir Imomjonov

Reklama bo'yicha murojaat:
For Advertisement:

+998 78 140-45-20
+998 78 140-45-21

«SMARTPACK PRINT» MChJ QK
bosmaxonasida chop etilgan.
Buyurtma № 2/58. Adadi 20 700.
Manzili: Toshkent sh., Yashnobod
tumani, Taraqqiyot ko'chasi, 2
Printed at SMARTPACK PRINT Ltd.
Order № 2/58. Circulation - 20 700.
Address: 2, Yashnabad dis.,
Taraqqiyot st., Tashkent

Manzil:
Address:

Amir Temur Avenue, 41, Tashkent, 100015, Uzbekistan
Tel.: +998 78 140-45-20,
+998 78 140-45-21
E-mail: info@uzairways.com

1993-yildan beri nashr etiladi.
«UZBEKISTAN AIRWAYS» AJ Tahririyati

Published Since 1993.
Publisher – JSC «UZBEKISTAN AIRWAYS»

**ISSN 2181-8266**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar (O'zMAA) 03.01.2007-yilda 0115 raqami bilan ro'yhatdan o'tkazilgan.

The magazine is registered by the Agency for Information and Mass Communications of Uzbekistan on 03.01.2007.
Registration number – 0115.




**Hampton by Hilton Tashkent - aniq tanlov**

Qayerda bo'lsangiz ham, o'zingiz istagan tarzda dam oling.

**The easiest decision of your trip**

Delivering the exceptional stay you deserve, everywhere you want to be.

Tashkent, Istiqbol str., 17 | +998 71 205 22 00 | www.hilton.com

# Hurmatli yo‘lovchilar!

## Dear Passengers!

*Uzbekistan Airways aviakompaniyasi havo kemasiga xush kelibsiz! E’tiboringizga “Uzbekistan Airways” bort jurnalining yangilangan formatda navbatdagi sonini taqdim etamiz. Endi u har chorakda chop etilib, turli sarlavhalar va yorqin fotosuratlarga to‘la bo‘ladi.*

Ushbu sonda biz aviakompaniya faoliyati bilan bog‘liq ikkita muhim sanani nishonlaymiz. 2023-yil Uzbekistan Airways 31 yoshga to‘ldi. Shu yillar davomida aviakompaniya butun dunyoda barqaror, xavfsiz va ishonchli aviatashuvchi sifatida o‘zini namoyon qildi. Uzbekistan Airways erishgan yutuqlarida to‘xtab qolmaydi va yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, parvozlar geografiyasi va aviaparkini kengaytirish bo‘yicha doimiy ish olib bormoqda.

Bundan tashqari, bu yil Uzbekistan Airways aviakompaniyasi va dunyodagi eng yirik samolyot ishlab chiqaruvchi kompaniyalardan biri – Airbus o‘rtasidagi hamkorlikka 30 yil to‘ldi.
Airbus havo kemalarining qanotlarida aviakompaniya 1993-yilda parvozlarni amalga oshirishni boshladi va haligacha kompaniyalar mustahkam hamkorlikni saqlab kelmoqda.

*Uzbekistan Airways welcomes you on board!*

*We are pleased to present the next issue of the Uzbekistan Airways inflight magazine in a renewed format. It has now become a quarterly magazine, full of various headings and bright pictures.*

In this issue we celebrate two important dates related to the activities of the airline. This year, Uzbekistan Airways celebrates its 31st anniversary. Over these years, the airline has established itself worldwide as a stable, safe and reliable air carrier. Uzbekistan Airways does not stop there and is continuously working to improve the quality of passenger service and to expand its flight geography and fleet.

Moreover, the year 2023 marks the 30th anniversary of cooperation between Uzbekistan Airways and one of the largest aircraft manufacturers in the world - Airbus.
The airline began operating flights on Airbus wings in 1993, and the two companies have maintained a strong partnership ever since.

Ushbu son sahifalarida O‘zbekistonning ajoyib va hayratlanarli joylari bilan ham tanishishingiz mumkin. Darband darasi, Xo‘ja Gur Gur ota tog‘ tizmasi, Ustyurt platosi, Nefrit ko‘li va boshqa hududlarning asl holicha saqlangan va beqiyos go‘zalligini tasvirlash uchun so‘z ojiz. Sayohatingizni respublika poytaxti bilan tanishishdan boshlamoqchi bo‘lsangiz, sizni xonanda Sevara Nazarxon bilan sayr qilishga taklif qilamiz. Mashhur san’atkor Toshkentdagi o‘zining sevimli joylari haqida so‘zlab beradi.

In the pages of this issue you can also take a look at the incredible and breathtaking places of Uzbekistan. A thousand words are not enough to describe the pristine and immense beauty of the Darband Gorge, the Khoja Gur Gur Ota mountain range, the Ustyurt Plateau, the Nephrite Lake and other places. If you would like to start your trip by exploring Uzbekistan's capital city, we invite you to join singer Sevara Nazarkhan for a walking tour. The singer will tell you about her favorite locations in Tashkent.

Safety. Stability. Comfort.

Xavfsizlik. Barqarorlik. Qulaylik.

Agar siz oilangiz bilan sayohat qilishni yaxshi ko'rsangiz, ota-onalar va bolalarga bag'ishlangan yangi rukn siz uchun juda mos keladi. Qiziqarli o'yinlar bolalarning samolyot bortida zerikishiga yo'l qo'ymaydi va psixolog maslahati ota-onalarga tarbiya va farzandlari bilan munosabatlar sohasida yangi bilimlarni o'rganishga yordam beradi.

If you love travelling with your family, our new section for parents and children is perfect for you. Exciting games will keep children entertained on board, while advice from psychologists will help parents learn more about parenting and relationships with their child.

# Sizga Uzbekistan Airways bilan yoqimli parvoz tilaymiz!

## We wish you a nice flight with Uzbekistan Airways!

Uzbekistan Airways bort jurnali bo'yicha o'z takliflaringizni **pr@uzairways.com** elektron pochta manziliga yuborishingiz mumkin.

Please send your suggestions for the Uzbekistan Airways inflight magazine to **pr@uzairways.com**

# Aviayangiliklar

### Uzbekistan Airways Jakarta, Parij va Tokioga parvozlarni tikladi

Indoneziya poytaxtiga parvozlar haftaning chorshanba kunlari Boeing787 havo kemalarida amalga oshiriladi. Jakartadan Bali oroliga qulay tutashuv reyslari mavjud.
Har hafta payshanba kunlari Kunchiqar mamlakat – Tokioga sayohat qilishingiz mumkin.
Toshkentdan Parijga parvozlar haftada ikki marta – seshanba va juma kunlari Airbus 320neo havo kemalarida amalga oshiriladi.

### Uzbekistan Airways biznes-klass yo'lovchilari uchun yo'l to'plamlarini yangiladi

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi yangilangan biznes-klass yo'l to'plamlarini taqdim etdi. Yo'l to'plamlariga Claus Porto premium qo'l kremi va lab uchun balzam, brendlangan sharikli ruchka, poyabzal uchun qoshiqcha va shippak kiradi.

# Air News

### Uzbekistan Airways Resumed Flights to Jakarta, Paris and Tokyo

Flights to the Indonesian capital are operated weekly on Wednesdays by Boeing787 aircraft. From Jakarta, there are convenient connecting flights to the island of Bali.
Flights to the Land of the Rising Sun, Tokyo are available weekly on Thursdays.
Flights from Tashkent to Paris are operated twice a week on Tuesdays and Fridays by Airbus 320neo.

### Uzbekistan Airways Renewed Travel Kits for Business Class Passengers

Uzbekistan Airways has introduced an updated series of travel kits designed for business class. The travel kits include premium Claus Porto hand cream and lip balm, a branded ballpoint pen, a shoehorn and slippers in individual packaging.

# Авиановости

### Uzbekistan Airways возобновила рейсы в Джакарту, Париж и Токио

Рейсы в столицу Индонезии осуществляются еженедельно по средам на самолёте Boeing787. Из Джакарты есть удобные стыковочные рейсы на остров Бали.
Отправиться в страну восходящего солнца – Токио можно еженедельно по четвергам.
Полёты из Ташкента в Париж выполняются дважды в неделю — по вторникам и пятницам на самолете Airbus 320neo.

### Uzbekistan Airways обновила дорожные наборы для пассажиров бизнес-класса

Авиакомпания Uzbekistan Airways представила обновленную серию дорожных наборов, предназначенных для бизнес-класса.






Parvoz davomiyligiga qarab, yo'lovchilarga tish tozalash to'plami, og'iz bo'shlig'ini chayish vositasi, taroq, quloq tiqinlari va uxlash uchun qulay niqob taklif etiladi. Uzbekistan Airways yo'l to'plamlarining asosiy afzalligi – bu qayta ishlanadigan va ekologik toza materiallardan foydalanish hisoblanadi.

Depending on the length of the flight passengers are also offered a toothbrushing kit, mouthwash, comb, earplugs and a comfortable sleeping mask.
The main advantage of Uzbekistan Airways travel kits is the usage of recyclable and environmentally friendly materials.

В зависимости от длительности полёта пассажирам также предлагаются набор для чистки зубов, ополаскиватель для полости рта, расческа, беруши и комфортная маска для сна.
Главное преимущество дорожных наборов Uzbekistan Airways – это использование перерабатываемых и экологически чистых материалов.








**Uzbekistan Airways ikkita Airbus A330 havo kemalarini qabul qilib oldi.**

“Uzbekistan Airways” AJning tashabbuskor rejalarini amalga oshirish uchun havo kemalari parkini kengaytirish va yo‘nalishlar tarmog‘ini ko‘paytirish bo‘yicha vazifalarni bajarish konsepsiyasi doirasida Airbus A330 oilasiga mansub ikkita samolyotni ijaraga olishga qaror qilindi. Tegishli kelishuv “Uzbekistan Airways” AJ va Heston Airlines o‘rtasida imzolandi.
Bundan tashqari, 2023-yil oxirigacha to‘rtta yangi Airbus A320Neo havo kemalari sotib olinishi kutilmoqda.

**Uzbekistan Airways Received Two Airbus A330 Aircraft**

To implement the ambitious plans of Uzbekistan Airways, as part of the concept of expanding aircraft fleet and fulfilling the tasks of increasing the route network, it was decided to lease two aircraft of the Airbus A330 family. The corresponding agreement was signed between Uzbekistan Airways JSC and Heston Airlines. In addition, four new Airbus A320Neo aircraft are expected by the end of 2023.

**Uzbekistan Airways получила два самолета Airbus A330**

Для реализации амбициозных планов АО «Uzbekistan Airways», в рамках концепции расширения парка воздушных судов и выполнения задач по увеличению маршрутной сети, было принято решение о приобретении в лизинг двух самолётов семейства Airbus A330. Соответствующее соглашение было подписано между АО «Uzbekistan Airways» и Heston Airlines.
Кроме того, до конца 2023 года ожидается приобретение четырёх новых самолетов Airbus A320Neo.





30

# Uzbekistan Airways Airbus qanotlarida parvozlarning 30 yilligini nishonlamoqda

## Uzbekistan Airways Celebrates 30 Years of Flying on Airbus Wings

Bu yil Uzbekistan Airways aviakompaniyasi va Airbus o‘rtasidagi hamkorlikning 30 yilligi nishonlanmoqda. Uzbekistan Airways aviaparkini yangilash jarayoni aynan Airbus havo kemalari bilan boshlandi. Natijada aviakompaniya faoliyatining dastlabki yillaridanoq dunyoning mashhur mamlakatlariga parvozlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Thirty years of cooperation between Uzbekistan Airways and Airbus is celebrated this year. The process of renewing the Uzbekistan Airways fleet was launched with the deliveries of Airbus aircraft. The airline was able to operate flights to popular countries around the world in the first years of its existence.

# Uzbekistan Airways tomonidan xarid qilingan birinchi Airbus havo kemasi qanday ko‘rinishga ega bo‘lgan?

**What did the first Airbus aircraft purchased by Uzbekistan Airways look like?**





Uzbekistan Airways va Airbus o‘rtasidagi ilk shartnoma uzoq davom etgan hamjihatlikdagi faoliyat, Airbus zavodlariga xizmat safari, samolyotlarning texnik imkoniyatlarini o‘rganish, Germaniya va Fransiyada uchuvchilarni qayta tayyorlash (yangi turdagi samolyotlarda parvoz amaliyotiga ega bo‘lish) dan so‘ng tuzilgan. Natijada 1993-yil 16-iyun kuni Uzbekistan Airways birinchi A310 havo kemasini qabul qildi, keyinroq esa aviapark ushbu turdagi yana ikkita samolyot bilan to‘ldirildi. Ushbu avialaynerlar Toshkentdan Nyu-York, Moskva, London, Frankfurt, Amsterdam, Istanbul, Tel-Aviv, Bangkok, Kuala-Lumpur, Seulga parvozlarni amalga oshirishni boshlagan. Havo kemalarining har biri keng va shinam salonga ega bo‘lib, 192 yo‘lovchini tashishga mo‘ljallangan edi.

Uzbekistan Airways' first contract with Airbus was signed after trips to Airbus factories, studying technical features of the aircraft, and retraining of pilots for new types of aircraft in Germany and France. As a result, on June 16, 1993, Uzbekistan Airways received its first Airbus A310 aircraft, which was later joined by two more aircraft. These aircraft were operating flights from Tashkent to New York, Moscow, London, Frankfurt, Amsterdam, Istanbul, Tel-Aviv, Bangkok, Kuala-Lumpur and Seoul. Each of the aircraft had a spacious, comfortable cabin and was designed to carry 192 passengers.

# Uzbekistan Airways va Airbus o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda yangi bosqichga qadam

**A new step in the partnership between Uzbekistan Airways and Airbus**




Uzbekistan Airways va Airbus o‘rtasidagi hamkorlikning navbatdagi bosqichi 2007-yilda oltita A320, 2008-yilda esa mazkur turdagi yana to‘rtta havo kemasini yetkazib berish bo‘yicha shartnoma imzolanishi bo‘ldi. 2019-yil Uzbekistan Airways aviaparkiga A320 oilasining yangilangan A320neo havo kemalari kelib qo‘shildi.

2022-yilda Uzbekistan Airways aviaparki beshta Airbus A321Neo havo kemalari bilan to‘ldirildi.

The next stage in cooperation between Uzbekistan Airways and Airbus was the contract signature for six A320 aircraft in 2007, followed by four more aircraft of this type ordered the next year. In 2019 Uzbekistan Airways received a re-engined version of the A320, known as the A320neo.

Five Airbus A321Neo aircraft were added to the fleet of Uzbekistan Airways in 2022.

# Kelajakda yangi Airbus havo kemalari qanday xususiyatlarga ega bo‘ladi?

## Which changes are going to be made in the new Airbus aircraft in the future?

O‘tgan yili Uzbekistan Airways va Airbus o‘rtasida A320neo oilasiga mansub 12 ta avialaynerlarni yetkazib berish bo‘yicha shartnoma imzolandi. Yangi havo kemalarining o‘ziga xos xususiyati ularda Airspace salonining borligi hisoblanadi. Ushbu samolyotlarning salonlari keng, yorug‘, yuk javonlari katta hajmda bo‘lib, hojatxonalari esa antibakterial qoplama bilan jihozlangan. Yangi havo kemalarini yetkazib berish 2029-yildan boshlanadi.

In recent years a contract was signed between Uzbekistan Airways and Airbus for twelve A320neo Family aircraft. The primary distinctive feature of the new airliners will be the passenger cabin. The cabins of these aircraft will be spacious, well-lighted, equipped with capacious luggage bins and renovated lavatories equipped with antimicrobial surfaces. Deliveries of the new aircraft will begin in 2029.

Har bir aviakompaniya uchun asosiy ustuvor vazifa, shubhasiz, o‘z aviaparkini kengaytirishdir. Uzbekistan Airways ham bu yo‘nalishda izchil ishlar olib bormoqda. Aviyakompaniya Airbus bilan uzoq yillardan buyon hamkorlik qilmoqda va yo‘lovchilar manfaati uchun imzolangan istiqbolli shartnomalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Uzbekistan Airways ushbu kompaniyaning samolyotlaridan qariyb 30 yildan beri foydalanadi va yaqin kelajakda yangilarini sotib olish ustida ishlashni davom ettiradi.

The top priority for every airline is undoubtedly to increase its fleet. Uzbekistan Airways is also working in this direction by cooperating with Airbus for a long time and maintaining promising agreements signed for the benefit of passengers. Uzbekistan Airways has been operating airplanes of this company for 30 years and will continue to work on getting new ones in the near future.



## Uzbekistan Airways va Airbus yana boshqa loyihalarni amalga oshirishni rejalashtiryaptimi?

Airbus kompaniyasining jamoatchilik bilan aloqalar boʻlimi menejeri Mariya Shlyaxtovaning soʻzlariga koʻra, mazkur kompaniya Uzbekistan Airways bilan uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirishdan va kelgusida qoʻshma loyihalarni amalga oshirishdan manfaatdor.

*"Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Airbus'ning MDH mintaqasidagi asosiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. Ishonchimiz komilki, biz ikki tomon uchun ham qiziqarli hamda oʻzaro manfaatli boʻlgan qoʻshma loyihalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratamiz. Ularni muhokama qilishga har doim tayyormiz", – dedi Mariya Shlyaxtova.*

Ayni paytda Uzbekistan Airways aviaparkida Airbus oilasiga mansub 17ta havo kemasi mavjud. Ikki kompaniya o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik o'zaro kelishuv, qoʻllab-quvvatlash va ishonchga asoslangan. Uzbekistan Airways Airbus bilan hamkorlikni kelajakda ham davom ettiradi.

## Are Uzbekistan Airways and Airbus planning to implement other projects?



According to Airbus PR-manager Maria Shlyakhtova, the aircraft manufacturer is interested in developing long-term cooperation with Uzbekistan Airways and joint projects in the future. To the Uzbekistan Airways inflight magazine, she stated the following:

*"Uzbekistan Airways is one of the key partners of Airbus in the CIS region.*
*We are confident that we can find new opportunities for joint projects which would be interesting and mutually beneficial for both parties. We are open to discussing new opportunities."*

Currently, Uzbekistan Airways' fleet includes 17 Airbus Family aircraft. The cooperation between the two companies is based on mutual understanding, support and trust. Uzbekistan Airways will continue its cooperation with Airbus in the future.

*Maqolani rus tilida oʻqish uchun QR kodni skanerlang*

*Scan the QR code to read the article in Russian*

# A321

# havo kemalaridagi yangi ko‘ngilochar tizim

## New Inflight Entertainment System on A321 Aircraft

### Новая система развлечений на самолетах A321

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Airbus A321 havo kemalarining bortida simsiz multimedia ko‘ngilochar tizimini joriy qildi.

Ushbu tizimdan faqat ichki Wi-Fi tarmog‘iga ulangandan so‘ng foydalanish mumkin. 001 dan 010 gacha bo‘lgan raqamli **uzairways** tarmog‘ini tanlang. Ularning orasidan istaganingizga ulaning.

Uzbekistan Airways has introduced a wireless inflight multimedia entertainment system on Airbus A321 aircraft.

Service is only available when connected to the internal Wi-Fi network. Select the **uzairways** network with an extension number between 001 and 010. Connect to any of them.

Авиакомпания Uzbekistan Airways внедрила беспроводную мультимедийную систему развлечений на борту самолетов Airbus A321.

Просмотр доступен только при подключении к внутренней сети Wi-Fi. Выберите сеть **uzairways** с добавочным номером от 001 до 010. Подключитесь к любой из них.

Iltimos, ulanish ko‘rsatmalari bilan tanishing.

1. Brauzeringizning qidirish bo‘limiga quyidagini kiriting: **uzairways.everhub.aero**

2. Interfeys tilini, so‘ngra, sizga qiziq bo‘lgan ko‘ngilochar kontent toifasini tanlang.

*Muhimi, uchishdan oldin telefoningizni “Parvoz” rejimiga o'tkazing.*

Please read the instructions on how to connect.

1. Launch your browser. Enter in the browser line: **uzairways.everhub.aero**

2. Select the interface language and then choose the entertainment content category you are interested in.

*Important: do not forget to switch your phones to flight mode before takeoff.*

Ознакомьтесь, пожалуйста, с инструкцией по подключению.

1. Запустите браузер. Введите в строке браузера **uzairways.everhub.aero**

2. Выберите язык интерфейса, а затем — интересующую вас категорию развлекательного контента.

*Важно: перед взлётом не забудьте переключить свои телефоны в режим «Полёт».*

Shuningdek, siz uzairways.everhub.aero veb-saytidagi so‘rovnomada qatnashishingiz va Uzbekistan Airways xizmatlari sifatini baholashingiz mumkin.

You can also take part in a survey and rate the quality of Uzbekistan Airways' services at uzairways.everhub.aero.

Также на сайте uzairways.everhub.aero вы можете принять участие в опросе и оценить качество услуг авиакомпании Uzbekistan Airways.





260 HA TOTAL AREA
8 HOTELS
14 LUXURIOUS VILLAS
CONGRESS CENTER
"ETERNAL CITY" ETHNO PARK
BOAT TRIPS ON ROWING CANAL
UMUMIY MAYDON 260 GEKTAR
8 TA MEHMONXONA
14 TA HASHAMATLI VILLA
KONGRESS MARKAZI
"BOQIY SHAHAR" ETNOGRAFIK BOG'I
ESHKAK ESHISH KANALIDA QAYIQ SAYOHATLARI
Silk Road Samarkand
YOUR ADVENTURE STARTS HERE. SAMARKAND
WWW.SILKROAD-SAMARKAND.COM
Rowing Canal, Samarkand, Uzbekistan
+998 55 705 55 55

31 yil

year

# Uzbekistan Airways 31 yoshda

## Uzbekistan Airways is 31 Years Old

**O‘zbekiston solnomasida uning bugungi kuni va kelajagini belgilab bergan muhim voqealar anchagina.**

31 yil avval “O‘zbekiston havo yo‘llari” Milliy aviakompaniyasining tashkil etilishi davlatimiz fuqaro aviatsiyasining rivojlanishida yangi davrni boshlab berdi. Ana shu yillar mobaynida Uzbekistan Airways brendi barqaror, xavfsiz va ishonchli aviatashuvchi sifatida dunyoga tanildi.

**There are many important events in the annals of Uzbekistan which determined its present and future.**

Thirty-one years ago, the establishment of the National Airline Company, O‘zbekiston havo yo‘llari, began a new era in the development of civil aviation in our country. During these years, the Uzbekistan Airways brand has been known to the world as a safe, stable and reliable air carrier.



O‘tgan davr mobaynida mamlakatimiz fuqaro aviatsiyasini rivojlantirish, shu jumladan havo kemalari parkini yangilash, parvozlarning yuqori darajadagi xavfsizligini ta’minlash, aeroportlar infratuzilmasini, havodagi harakatni boshqarish va malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha izchil choralar ko‘rildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yilning 28-noyabr kuni imzolagan Farmoni doirasida fuqaro aviatsiyasi sohasidagi boshqaruvning zamonaviy shakllari va usullarini jadal joriy etish, tarmoqdagi korxonalarni jahon tendensiyalari va standartlariga muvofiq tarkibiy o‘zgartirish, aviatashuvlar bozorida raqobatni rivojlantirish va tarmoqqa investitsiyalarni faol jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi.

So‘nggi yillarda sohada katta o‘zgarishlar ro‘y berdiki, bu yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilab, parvozlar geografiyasini kengaytirishda, infratuzilmalarni zamonaviylashtirishda qo‘l keldi.

Jahon bozorida keskin raqobat bo‘lgan bir paytda aviatsiya texnologiyalarining yangiligi parvozlar xavfsizligi va muntazamligini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Over the past period, consistent measures have been taken to develop the civil aviation of our country, including updating the aircraft fleet, ensuring a high level of flight safety, improving the infrastructure of airports, air traffic management and the system of training qualified specialists.

Within the framework of the decree signed by the President of the Republic of Uzbekistan on November 28, 2018, the Uzbekistan Airways joint stock company was established for the rapid introduction of modern forms and methods of management in the field of civil aviation, the structural change of enterprises in the network in accordance with world trends and standards, the development of competition in the air transport market and the creation of conditions for actively attracting investments to the network.

In recent years, significant changes have taken place in the industry, which have improved the quality of service for passengers, expanded flight geography, and modernized infrastructures.

At a time of fierce competition in the world market, the innovation of aviation technologies is the main factor which ensures the safety and regularity of flights.




Xorijda ishlab chiqarilgan eng zamonaviy avialaynerlarni sotib olish esa aviakompaniya parkini yangilash uchun strategik vazifaga aylandi. Bugungi kunda Uzbekistan Airways aviaparkida 30 dan ortiq havo kemalari mavjud hamda Markaziy Osiyodagi eng yosh aviaparklardan biri hisoblanadi.

“Orzu layneri” deb ataluvchi Boeing 787 samolyotlari hamda Airbus oilasiga mansub havo kemalaridan foydalanish aviakompaniyaning taraqqiyot tomon doimiy ravishda intilishiga va rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi.

2022-yilda Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Airbus kompaniyasi bilan A320neo oilasiga tegishli 12 ta havo kemasini (sakkizta A320neo va to‘rtta A321neo) xarid qilish uchun shartnoma imzoladi. Yangi avialaynerlar aviakompaniyaning bugungi kunda 17 ta Airbus A320 oilasiga tegishli havo kemalaridan iborat aviaparkiga kelib qo‘shiladi.

Acquisition of airliners made in foreign countries became a strategic task to renew the airline's fleet. Today, the fleet of Uzbekistan Airways is one of the youngest in Central Asia and has more than 30 aircraft.

The use of Boeing 787 airplanes – the so-called “Dreamliner” – and aircraft belonging to the Airbus Family, have greatly contributed to the continuous progress and development of the national airline.

In 2022, Uzbekistan Airways signed a contract with Airbus for purchasing 12 aircraft belonging to the A320neo family (eight A320neo and four A321neo). New airliners will join the airline's current fleet, which consists of 17 Airbus A320 aircraft.







Airbus kompaniyasi bilan imzolangan yangi shartnoma aviakompaniya parkini modernizatsiya qilish strategiyasining yangi bosqichi bo'lib, yo'lovchilarga eng zamonaviy va qulay havo kemalarini taklif qilishni davom ettirishga, Markaziy Osiyoda Uzbekistan Airways mavqeyini yanada yaxshilashga va mintaqa ichida ham, undan tashqarida ham parvozlar xaritasini sezilarli darajada kengaytirishga yordam beradi.

The new agreement signed with Airbus is an important step in the airline's fleet modernization strategy, which will allow us to continue offering passengers the most modern and comfortable aircraft. It also further improves the position of Uzbekistan Airways in the Central Asian region and helps to expand the flight map both within and outside the region significantly.

Havo kemalarini texnik ko'rikdan o'tkazmay turib ekspluatatsiya qilish ilojsizdir. Samolyotlarning parvozga yaroqliligini tekshirish aviakompaniyaning tarkibiy bo'linmalaridan biri – Uzbekistan Airways Technics aviata'mirlash korxonasining asosiy vazifasiga aylandi. Korxona nafaqat Uzbekistan Airways, balki, xorijiy aviakompaniyalarning havo kemalariga ham – bo'yashdan tortib to'liq ta'mirlashgacha bo'lgan har qanday murakkablikdagi texnik xizmatlarni ko'rsatadi.

Bugungi kunda korxona o'zining shaxsiy ta'mirlash bazasiga ega bo'lib, unda kompozit materiallardan tayyorlangan qismlarni ta'mirlash bo'yicha zamonaviy markaz faoliyat yuritadi.

It is impossible to operate aircraft without technical inspection. Checking the airworthiness of planes has become the main task of Uzbekistan Airways Technics, one of the structural divisions of the airline. The enterprise provides technical services of any complexity, from painting to full repair. And they work not only for Uzbekistan Airways, but also for aircraft of foreign airlines.

Today, the structural division has its own repair base and operates a modern center for repairing airplane parts made of composite materials.





Ketring xizmati mahalliy va xalqaro qatnovlarning yo'lovchilari, ekipaj a'zolari va havo kemalarining texnik xodimlari uchun Islomiy qonunlarga muvofiq tayyorlanadigan oziq-ovqat yetkazib berilishini tasdiqlaydigan
GSO 2055-1:2016, HAS 23000 &23021, MS 1500:2009 standartlari sertifikatlariga ega.

Bugungi kunda Uzbekistan Airways dunyoning 30 dan ortiq shaharlariga parvozlarni amalga oshirmoqda, xorijda 20 dan ziyod vakolatxonalarga ega va aviakompaniyaning havo kemalari yiliga 25 000 dan ortiq reyslarni amalga oshiradi.

2021-yilning noyabr oyidan boshlab Uzbekistan Airways va Amadeus axborot texnologiyalari sohasida strategik hamkorlikni boshladi va aviakompaniya Amadeus Altea platformasiga o'tishni muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Bu aviakompaniya operatsion samaradorligini oshirishiga hamda mijozlarga yuqori darajada xizmat ko'rsatishga turtki bo'ladi.

Our catering service owns the following certificate standards, which confirm the delivery of food on domestic and international flights for passengers, crew members and aircraft technicians in accordance with Islamic laws: GSO 2055-1:2016, HAS 23000 &23021, MS 1500:2009.

At the present time, Uzbekistan Airways operates flights to more than 30 cities, has over 20 worldwide offices, and conducts over 25,000 flights per year.

Starting in November of 2021, Uzbekistan Airways and Amadeus started a strategic cooperation in the field of information technologies and the airline has successfully transitioned to the Amadeus Altéa platform. This will encourage the airline to increase operational efficiency and provide high-quality customer service.




Bundan tashqari, ushbu hamkorlik aviakompaniyaning o'z strategik maqsadiga erishishiga, ya'ni Yevropa va Osiyo o'rtasida qulay avia tutashuvini ta'minlashga yordam beradi.

Yo'lovchilarni o'z hududlaridan sayohat qilishlarida yangi imkoniyatlarni yaratish maqsadida 2022-yilning 30-yanvaridan boshlab Namangandan Rossiya Federatsiyasining qator shaharlariga aviaqatnovlar yo'lga qo'yildi. Ushbu loyiha "Sharqiy xab" deb nom oldi. Endilikda Farg'ona vodiysi aholisi Namangan xalqaro aeroportidan Moskva, Samara, Perm, Omsk, Yekaterinburg, Sochi, Qozon, Mineralniye Vodi, Irkutsk va Ufaga to'g'ridan-to'g'ri qatnovlarda yetib borish imkoniga ega bo'ldi.

Moreover, this cooperation will help the airline to achieve its strategic goal, which is to provide convenient air connections between Europe and Asia.

Beginning on January 30, 2022, regular flights were launched from Namangan to a number of cities in the Russian Federation in order to create new opportunities for passengers to travel from their regions. This project is called "Eastern hub". Nowadays people in Fergana Valley can fly to Moscow, Samara, Perm, Omsk, Yekaterinburg, Sochi, Kazan, Mineralnye Vody, Irkutsk and Ufa on regular flights via Namangan International Airport.

Uzbekistan Airways yo'lovchilarga sifatli xizmat ko'rsatish turlarini kengaytirishda davom etmoqda. Aviachiptani onlayn xarid qilish uchun aviakompaniya rasmiy veb-sayti ko'rinishi yorqin ranglarda va foydalanish uchun qulayroq bo'ldi, yangi mobil ilova ishlab chiqildi. Endilikda maxsus taomga buyurtma berish, chipta sanasini o'zgartirish, joy tanlash hamda qo'shimcha yuk olib ketish xizmatlarini uydan chiqmasdan turib, sayt yoki mobil ilova orqali xarid qilish imkoniyati mavjud.

2021-yilda Uzbekistan Airways aviatashuvlarning gibrid modeliga o'tdi. Uzbekistan Express deb nomlangan yangi formatdagi loukost aviatashuvlar mana bir yarim yildirki respublikamizning deyarli barcha hududlaridan muntazam qatnovlarni amalga oshirib kelmoqda. Buning uchun Airbus 320 havo kemalari to'liq ekonom, ya'ni biznes-klass toifasisiz parvozlarni amalga oshirmoqda. Uzbekistan Airways Express aviaqatnovlarida ko'rsatiladigan xizmatlar soni qisqartirilganligi sabab aviachiptalar narxi 20% gacha arzonlashdi. Bu ham yo'lovchilarga yaratilgan yana bir imkoniyatdir.

Uzbekistan Airways continues to expand its range of quality services to passengers. The design of the airline's official website has become more colorful and it has also become easier to purchase airline tickets online. A new mobile application was launched too. Now it is possible to order your special onboard meal, rebook, choose your seat on board, buy additional baggage and use other online services on our official website or mobile app from the convenience of your home.

In 2021, Uzbekistan Airways switched to a hybrid model of air transportation. A new low-cost air carrier called Uzbekistan Express has been operating regular flights from almost all regions of our republic for the past 18 months. For this purpose, Airbus 320 aircraft are carrying out full economy flights without a business class category. Due to the reduction in the number of services provided on Uzbekistan Airways Express flights, the price of airline tickets has decreased by 20%. This is another opportunity for passengers.






Uzbekistan Airways 2022-yilda nafaqat bir qator yangi yo'nalishlarni ochdi, balki dunyoning eng ko'p tashrif buyuradigan shaharlari: Boku, Parij, Tokio, Milan, Rim, Kuala-Lumpurga parvozlarni tikladi.

Joriy yilda yangi reyslar Pekin va Jakarta shaharlaridan boshlandi, keyinchalik esa Bangkok, Berlin, Manchester va dunyoning ko'plab mashhur shaharlariga yo'lovchilar uchun to'g'ridan-to'g'ri parvozlarni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

In 2022, Uzbekistan Airways not only opened new flight destinations, but also resumed flights to such cities like Baku, Paris, Tokyo, Milan, Rome, and Kuala Lumpur.

This year the airline has begun to fly to Beijing, Jakarta and has also planned to set regular flight routes for passengers to Bangkok, Berlin, Manchester and many other cities of the world.

Uzbekistan Airways 2022-yildan boshlab yangi Toshkent – Batumi, Toshkent – Sharm el-Shayx, Buxoro – Istanbul, Farg‘ona – Dubay qatnovlarini amalga oshirib kelmoqda.

Aviakompaniya mahalliy qatnovlarning narxlarini optimallashtirishda davom etmoqda, bu esa fuqarolarimizga mamlakatimiz miqyosida ko‘proq sayohat qilish imkoniyatini yaratadi.

Kichik aviatsiyaning ichki turizmni rivojlantirishga qo‘shayotgan hissasi ham e’tirofga loyiq. “Uzbekistan Helicopters” MChJ aviakompaniya rentabelligini oshirish va uni diversifikatsiya qilish hamda vertolyot xizmatlarini keng targ‘ib qilish maqsadida ikkita Airbus H-130 vertolyotlarini foydalanish uchun qabul qilib oldi.

Starting in 2022, Uzbekistan Airways is carrying out new routes: Tashkent - Batumi, Tashkent - Sharm el-Sheikh, Bukhara - Istanbul, and Fergana - Dubai.

The airline continues to optimize the prices of local flights, which gives our citizens the opportunity to travel more within the country.

The contribution of business aviation to the development of domestic tourism deserves recognition as well. Uzbekistan Helicopters LLC has received two Airbus H-130 helicopters for use in order to increase the profitability and diversification of the airline, as well as to widely promote helicopter services.



Vertolyotlarga xizmat ko‘rsatish uchun uchuvchilar va texnik xodimlar jamoasi shakllantirildi. Bugungi kunda Uzbekistan Helicopters aviaparkida ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan 2 ta MI-8-MTV, 2 ta Airbus H-125 va 2 ta Airbus H-130 vertyolyotlari mavjud.

2022-yilda qator loyihalar ishlab chiqildi. “Ilk parvozim” ijtimoiy loyihasi “Temir daftar”ga kiritilgan ayollarni bir kun davomida hayot tashvishlarini unutib, sayohat qilish imkoniyatini yaratishni maqsad qildi. Loyihada Toshkent, Sirdaryo, Namangan viloyati ayollariga mamlakatimizning mashhur shaharlari, ularning ziyoratgohlari bo‘ylab sayohatlar tashkil etildi. Xiva, Buxoro, Termiz va Toshkent shaharlarida bo‘lib o‘tgan sayohat bilan birga munis ayollar o‘z orzularini – havo kemasida parvoz qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.



It has formed a group of pilots and technicians to service the helicopters. Today, Uzbekistan Helicopters' fleet has 2 MI-8-MTV, 2 Airbus H-125 and 2 Airbus H-130 helicopters aimed at the development of domestic tourism.

In 2022, a number of projects were developed. The social project “Ilk parvozim” (My first flight) aimed to create an opportunity for women who are included in the so-called “Iron Notebook” (in Uzbek “Temir Daftar”) welfare program to travel for a day and help them forget life's problems. In the project, trips were organized to Uzbekistan's famous cities and their shrines for women from Tashkent, Syrdarya, and Namangan regions. Along with the trip to the cities of Khiva, Bukhara, Termiz and Tashkent, pure-hearted women fulfilled their dream - the opportunity to fly in an airplane.

Aviatsiya bu katta kompleks jarayon va xizmat. Aviatsiya – ko‘p tarmoqli kasblar va uchuvchilar, aviadispetcher va aviatexnik, bortkuzatuvchi va bortmuhandislar degani.

Hisobchilardan tortib bort taomlarini tayyorlovchi oshpazlar, havo kemasining elektr tarmoqlari uchun javobgar shaxslar, iqtisodchi, IT-mutaxassislar, marketologlar, supervayzerlargacha bularning hammasi aviatsiya demakdir. Ularsiz aviakompaniya rivojlana olmagan bo‘lar edi. Mamlakat bo‘ylab har kuni o‘nlab havo kemalarining osmonga ko‘tarilishida, havo kemalarining texnik xizmat ko‘rsatishda ularning barchasining o‘z o‘rni bor. Va bularning hammasi parvozlarni xavfsiz va qulay amalga oshirish yo‘lida bajarilayotgan ishlardir.

Aviation is a huge and complex process and service. Aviation includes multidisciplinary professions and pilots, air traffic controllers and flight technicians, flight attendants and flight engineers.

From accountants to cooks who prepare in-flight meals, from persons responsible for aircraft electrical networks to economists, IT specialists, marketers, supervisors – it all means aviation.
The airline could not develop without them. All of them have a role in the daily maintenance of dozens of aircraft and their flights across the country. And all this is done to make flights safe and comfortable.




31 yil aviakompaniya faoliyatida muhim sana hisoblanadi. O‘tgan yillar mobaynida zamonaviy texnologiyalar va yuqori malakali menejment tufayli aviakompaniya ishonchli aviatashuvchi va hamkor sifatida obro‘ qozondi, yo‘lovchilarga yangi hamda qulay samolyotlarni taqdim etdi, yangi yo‘nalishlarni yo‘lga qo‘ydi.

Uzbekistan Airways aviakompaniyasining faxrlanishga arzigulik yutuqlari ko‘p. Yo‘lovchilarimiz bizga ishonch bildirishmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining ko‘magi bilan aviakompaniya yangi loyihalarni amalga oshirib, fuqaro aviatsiyasini yuqori pog‘onaga ildamlashiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Aviakompaniyani transformatsiya qilish va rivojlantirish yuzasidan belgilab berilgan ishlar esa izchil davom ettirilmoqda.

Thirty-one years is an important number in the airline's career. Over the years, thanks to modern technologies and highly qualified management, Uzbekistan Airways has gained a reputation as a reliable air carrier and partner, presented new and comfortable planes to passengers, and set off on new routes.

Uzbekistan Airways has many achievements worth being proud of. Our passengers believe in us. Today, with the support of the President of the Republic of Uzbekistan and the government, the airline implements new projects and contributes to the promotion of civil aviation to a higher level.
Specified works for the transformation and development of Uzbekistan Airways are being continued consistently.

*Maqolani rus tilida o‘qish uchun QR kodni skanerlang*

*Scan the QR code to read the article in Russian*



# EXPERIENCE CHINESE HOSPITALITY IN THE ANCIENT CITY OF SAMARKAND

SILK ROAD *by* MINYOUN®
SAMARKAND HOTEL
撒马尔罕丝路明宇豪雅®酒店

Mirage SPA & Wellness
Yi Palace luxurious Chinese restaurant / Muhtasham Yi Palace Xitoy restorani
2 Presidential suites / 2 ta Prezident lyuks xonalari
241 rooms of different categories / 241 ta har xil toifadagi xonalar

+998 55 705 55 55
www.silkroad-samarkand.com
Silk Road Samarkand Tourist Complex







THE LEADING HOTELS OF THE WORLD®



- The first and only hotel in Central Asia to be a member of the Leading Hotels of the World association
- Luxurious Nephrite SPA and Wellness Centre
- 20th floor Sky Bar offers magnificent city views and terrace
- 232 rooms including 26 suites with canal
- 2 swimming pools

- "The Leading Hotels of the World" nufuzli assotsiatsiyasining a'zosi bo'lgan Markaziy Osiyodagi birinchi va yagona mehmonxona.
- Hashamatli Nephrite SPA & Wellness
- Ajoyib shahar manzarasi va ayvonga ega bo'lgan 20-qavatdagi Sky Bar
- 232 ta standart va 26 ta lyuks xona kanal manzarasiga qaragan
- 2 ta suzish havzasi

# GET THE ULTIMATE EXPERIENCE

SAMARKAND REGENCY®
AMIR TEMUR

+998 55 705 55 55
www.silkroad-samarkand.com
Rowing Canal, Samarkand
Uzbekistan



# O‘zbekistonning o‘rganilmagan maskanlari

Unexplored Uzbekistan

# Darband darasi

## Darband Gorge

# Mahobatli Darband - vaqt to‘xtagan joy

## Mighty Darband - A Place Where Time Stands Still

O‘zbekistonning ba’zi hududlari shu qadar mahobatli va go‘zalki, ularning ko‘rinishi odamni hayratga soladi. Ular o‘zlarining sof go‘zalligi bilan ajablantirib, unutilmas xotiralarni qoldiradi. Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida joylashgan Darband darasi ham xuddi shunday jozibali ko‘rinishga ega.

Some places in Uzbekistan are so majestic and beautiful that the sight of them takes your breath away. They amaze with their untouched beauty and leave unforgettable memories. Darband Gorge, which is located in Baysun district of Surkhandarya region, has a similarly mesmerizing effect.



Bu yerda hatto eng g‘ayratli sayohatchini ham hayratda qoldiradigan chuqur g‘orlar, ulkan kanyonlar, tiniq muqaddas buloq va million yillar oldin dinozavrlar yashagan joylar mavjud. Darband darasida o‘tmishning ma’lum bir qismlarini saqlaydigan sirli muhit hukm suradi.

“Darband” tojikchadan “daraga to‘siq” deb tarjima qilinadi. Tik qoyalarining balandligi 400 metrga yetadi, uzunligi esa 8 kilometr. Bir vaqtlar So‘g‘diyona va Hindistonni bog‘laydigan eng muhim karvon yo‘llaridan biri Darband orqali o‘tgan. Qishloq aholisi ushbu yo‘lni himoya qilish uchun mas’ul bo‘lgan, shuning uchun dara shunday g‘ayrioddiy nomga ega.

It has everything that can surprise even the most avid traveler: deep caves, giant canyons, a crystal clear sacred spring and even the places where millions of years ago dinosaurs lived. The Darband Gorge has a mysterious atmosphere that holds the remnants of a past unexplored.

Darband translates from Tajik as “barrier in the gorge”. Its steep cliffs are 400 metres high and 8 km long. Darband was once one of the most important caravan routes linking Sogdiana and India. The villagers were responsible for guarding this route, and for this reason the gorge bears such an unusual name.









Daraga kirganingizda sizga vaqt to‘xtab qolgandek tuyuladi. U yerda siz issiq chopon kiygan odamlarni hamda yalang oyoq yurib qoyalarga chiqayotgan va soyda baliq ovlayotgan bolalarni uchratishingiz mumkin. Paxsali uylar mo‘rt bo‘lib ko‘rinadi, sizni ulug‘vor qoyalar salobati bosadi. Daraga kirib borganingiz sayin uning go‘zalligi sizni o‘ziga jalb etadi va maftun qiladi. Bu tafsilotlarning barchasi Darbandning ilk jozibasini aks ettiradi.

Qoyali tog‘lar Darband darasi taqdim etadigan yagona joy emas. O‘zbekistonning turli burchaklaridan odamlar ko‘plab afsonalar bilan bog'liq bo‘lgan muqaddas “Xo‘jamoy ota” bulog‘i uchun minglab kilometrlarni bosib keladilar.

Afsonalardan birida aytilishicha, bir vaqtlar Xo‘jamoy ismli chol uzoq davom etgan qurg‘oqchilikdan so‘ng o‘z ona qishlog‘i aholisini qutqarish uchun suv topishga qaror qilgan. Xudo unga Darbandga yetib borishi va u yerda hassani uch marta yerga urib qo‘yishi haqida ishora yuborgan. Xo‘jamoy ota shunday qiladi va qoya ichida mo‘jizaviy tarzda g‘or paydo bo‘ladi, undan eng issiq yozda ham qurib qolmaydigan buloq otilib chiqadi.

The first thing you notice as you enter the area is that time seems to have stopped. People you meet are dressed in warm chapans; children run barefoot, climb rocks and catch fish in the brook. The mud houses seem wobbly and fragile, and the majestic cliffs loom over you as if they want to frighten you. These features do not repel, but rather draw you in. All these details reflect the pristine beauty of Darband.

The rocky mountains are not the only thing this gorge has to offer. People from all over Uzbekistan travel thousands of kilometers for the sacred spring of “Hujamoy-ota”, which is associated with many legends.

One of them says that once upon a time, an old man called Hujamoy decided to save the people of his village after a long drought and find water for them. He was told by God to come to Darband and hit the ground three times with a stick. Hujamoy did everything and then a cave miraculously appeared in the rock. A spring gushed out from it, which did not dry up even in the hottest of summers.



Tog‘dagi g‘or yaqinida Xo‘jamoy ota qabri joylashgan, u yer ziyoratgoh hisoblanadi. Bu qabrga borish oson emas, chunki unga boradigan yo‘l kichik daryo va tik holatdagi pastlik bilan to‘silgan. Bu ziyoratgohning ishchilari yillar davomida og‘ir sharoitli yo‘llarga o‘rganib qolganligi sabab tog‘ yonbag‘ridagi qabrga bemalol kelib ketishadi.

By the cave in the mountain there is a tomb of Hujamoy-ota, a place of worship. To reach this tomb is not an easy task, as the road to it is blocked by a small river and a steep descent. Over the years, the servants of the place have become accustomed to the harsh conditions and have no difficulty in reaching the tomb on the mountainside.

Darband darasidan qolgan barcha his-tuyg‘ularni tasvirlashga til ojiz. Ushbu manzilgoh O‘zbekistonning beqiyos go‘zalligiga to‘liq ishonch hosil qilish uchun o‘zingiz kashf qilishingiz kerak bo‘lgan joylardan biri. Buni esa payshanba va shanba kunlari Uzbekistan Airways bilan Surxondaryo viloyatiga parvoz qilib amalga oshirishingiz mumkin.

A thousand words are not enough to describe all the sensations of visiting Darband Gorge. This is one of those places that you should experience by yourself in order to be fully convinced of Uzbekistan's immense beauty. And you can do it by visiting the Surkhandarya region, where Uzbekistan Airways operates flights on Thursdays and Saturdays.



Khiva
RESTAURANT
BY SAZANCHIK



O'ZBEKISTONNING ENG MASHHUR RESTORANLAR TARMOG'I

"SAZANCHIK" XORAZM MILLIY TAOMLARI BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARINING BLUEWATERS MANZILGOHIDA YANGI "KHIVA BY SAZANCHIK" NOMI BILAN O'Z FAOLIYATINI BOSHLADI. SIZNI XORAZMNING BETAKROR VA MAZALI TAOMLARINI TATIB KO'RISHGA CHORLAB QOLAMIZ.







ONE OF THE MOST POPULAR RESTAURANT CHAINS OF UZBEKISTAN

RECENTLY "SAZANCHIK" OPENED "KHIVA BY SAZANCHIK" IN THE BLUEWATERS AREA OF THE UAE, A RESTAURANT SHOWCASING THE NATIONAL CUISINE OF KHOREZM

AUTHENTIC CUISINE OF
KHOREZM
IS WAITING FOR YOU

Bluewaters, Dubai, UAE, 390248
+971565838383

@KHIVA_DUBAI




# Mashhur o'zbek kino va estrada yulduzlari qanday buyumlarsiz sayohatga bora olmasligi haqida aytib berishdi

## Popular Uzbek Movie Stars and Singers Tell What They Cannot Travel Without

Qiziquvchan sayohatchi bo'lasizmi yoki ilk sayohatingizga tayyorlanyapsizmi, har bir insonning doimo o'zi bilan sayohatga olib ketadigan bir narsasi bo'ladi. Shu bois Uzbekistan Airways'ning bort jurnaliga bergan intervyusida yurtimizning taniqli aktyor va xonandalari o'z sirlari bilan o'rtoqlashishdi va aynan nimalarsiz sayohatga bormasligi haqida gapirib berishdi.

Regardless of whether you are an avid traveler or preparing for your first trip, everyone has something important without which they cannot go on a trip. Therefore, in an interview for the Uzbekistan Airways inflight magazine, popular local actors and singers shared their secrets and told about what they cannot travel without.



## Asal Shodiyeva

**Aktrisa**

Actress

Xizmat safariga jo'nayotganingizda, ortiqcha yuklarni olmasdan parvozni o'zingiz uchun qulay qilganingiz ma'qul. Ammo butun oila safarga otlanganida, kerakli narsalar soni bir necha baravar ko'payadi. Bolalar uchun men har doim ularning sevimli suv idishini olaman. Parvoz qilayotganimizda ular noqulaylikni his qilishadi va sevimli o'yinchoqlari yoki suv idishi ularni tinchlantiradi. Men parvoz paytida qo'limda ortiqcha yuk olib ketmaslikka harakat qilaman. Odatda safardan esdalik sovg'alar bilan qaytamiz va asosiy yuklarni doim bagajga topshiraman, shu bois eng katta chamadonni tanlayman. Va, albatta, aeroport yoki savdo markazlarida havo harorati o'zgargan hollarda hamisha katta issiq sharf yonimda bo'ladi, – deb o'rtoqlashdi aktrisa va xonanda Asal Shodiyeva.

When you fly for business, it is best not to be overloaded with things to have a comfortable flight. But when the whole family comes together, the number of things that are required becomes much greater. For the kids, I always bring their favorite bottle. During the flight they feel discomfort, and the favorite toy or bottle calms them. I also try not to overload myself during the flight with hand luggage, so I choose the largest suitcase, because we will return with gifts and souvenirs. And of course, a large warm scarf is always nearby in case of temperature changes at the airport or in malls - shared the film actress and singer Asal Shodieva.



## Ilhom Yulchiev

**(Dj Piligrim)**

San'atkor/Artist

Men uchun sayohat davomida internet tarmog'iga ulangan telefon bo'lishi muhim. GPS-navigator, Google Maps yordamida yangi joylarda mustaqil harakat qilishim uchun menga internet juda kerak. Shuningdek, ikkinchi o'rinda mening yonimda doim kredit kartam bo'lishi zarur. Uchinchidan ovoz o'tkazmaydigan quloqchinlar mening yonimda bo'ladi. U meni megapolislar, odamlar va bozorlarning shovqinidan asraydi, – deb tan oldi xonanda Ilhom Yulchiev (DJ Piligrim).

The first thing I need is a telephone with a network. I need the internet in order to use GPS navigators and Google Maps to get around. I also need my credit card. The third thing is soundproof headphones. I like to isolate myself from the hustle and bustle of cities, loud people, and markets - admitted singer Ilkhom Yulchiev (DJ Piligrim).



## Aziza Halilova

Tadbirkor, aktrisa, influenser

Entrepreneur, actress, influencer

Sayohatda doim o'zim bilan olib yuradigan narsa bu telefon. Men doimo aloqada bo'lishni xohlayman va har bir daqiqani telefonim xotirasiga muhrlab qo'yishga harakat qilaman. Yuzimda oftobdan dog'lar paydo bo'lishini istamaganim uchun chamadonimda har doim quyoshdan himoya qiluvchi krem bo'ladi. Har qanday sayohatda hamisha men bilan birga bo'ladigan yana bir narsa bu minerallar qo'shilgan suvdir, – deydi aktrisa va model Aziza Halilova.

The thing I always take with me on any trip is the phone. I always want to stay in touch, and try to grab each moment. Second, I definitely do not want to get sunburnt, so the sunscreen is always in my suitcase. Another thing that is always with me on any journey is bottled water with minerals - said the actress and model Aziza Halilova.



## Umid Iskandarov

Aktyor, kinorejissor
Actor, film director

Men uchun sayohat har doim qandaydir bir yangilik: yangi odamlar, men ko‘rmagan joylar, o‘zga madaniyat. Men yolg‘iz sayohat qila olmaydigan odamman. Hattoki ikki kunlik qisqa sayohatda ham yaxshi kayfiyat ulashishim mumkin bo‘lgan yaqin odamim yonimda bo‘lishi kerak. Sayohat paytida men uchun aviakompaniyani tanlash ham muhim sanaladi. Juda ko‘p sayohat qilaman, shu sababdan men uchun aviakompaniya tanlashda eng asosiysi bu parvozlarning xavfsizligi bo‘ladi. Menimcha, bu har qanday sayohatchi uchun muhim, – deya o‘z sirlarini o'rtoqlashdi aktyor va kinorejissor Umid Iskandarov.

For me, the journey is always something new: new persons, new territories, a new culture. I am the kind of person who cannot travel alone. Even on a two-day journey, I need someone close to me to share my good mood with. Another important criterion in the journey for me is choosing the airline. I travel a lot, so for me the most important factor in choosing an airline will always be the safety of flights. I think this is the most important thing for every traveler - told in secret by the actor and film director Umid Iskandarov.



## Ruhsora Emm

Qo‘shiqchi/Singer

Sayohatlarimning hech biri quloqchinlarsiz o‘tmaydi, chunki men ko‘pincha yolg‘iz parvoz qilaman hamda o‘sha paytda musiqa tinglashni va orzu qilishni yaxshi ko‘raman. Parvoz paytida musiqa tinglash o‘zgacha hissiyot beradi.

Men hamisha YouTube kanalim uchun sayohat vloglarini suratga olish maqsadida o‘zim bilan kamera olib yuraman. Kosmetik sumkam esa har qanday sayohatimda mening yonimda bo‘ladi, chunki ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarimda har doim chiroyli ko‘rinishga harakat qilaman, – dedi xonanda va bloger Ruhsora Emm.

I have never traveled without headphones because I often fly alone and I love listening to music and dreaming alone. During flights, listening to music gives me a special feeling.

Also, I always take a camera with me to film travel vlogs for my YouTube channel. My cosmetics bag - the most important aspect in any trip, because in my social networks I always try to look beautiful - shared the singer and blogger Ruhsora Emm.

*Sayohatga tayyorgarlik ko‘rayotganingizda, o‘zingizga kerak bo‘ladigan barcha zarur narsalarni olganingizga ishonch hosil qiling va eng esda qolarli xotiralarni muhrlash uchun kamerangizni olishni unutmang. Ta’tilingizni Uzbekistan Airways bilan rejalashtiring va dunyoni kashf eting.*

*While preparing for the flight, make sure that you have packed all the things you need and that you have taken the camera to create the most vivid memories on your journey. Plan your holidays carefully and explore the world with Uzbekistan Airways.*






**Tashrif buyuring va Khan'ning afsonaviy Karvonsaroyining mehmoni bo'ling!**

Khan Chapan sizni daryo bo'yida joylashgan noyob **MUHITDAN BAHRAMAND** bo'lishingiz uchun kutib oladi:

- Qadim zamonlarning ruhini **HIS ETING!**
- Ipak yo'li taqdim etadigan eng mazali taomlardan **ROHATLANING!**
- Suv bo'yidagi salqin yozgi terrasada o'z fikrlaringiz og'ushiga **SHO'NG'ING!**
- **TAJRIBA**ngizni biz bilan boyiting!
- 300 nafardan ortiq sayohatchiga zavq berishga qodir Saroyning yashirin afsonalarini **KASHF ETING!**



**Come and become a guest of the Khan's legendary Caravanserai!**

Khan Chapan welcomes you to **EXPLORE** a unique **ATMOSPHERE** located by the riverside:



- **FEEL** the spirit of ancient times!
- **ENJOY** the best dishes the Silk Road has to offer!
- **IMMERSE** yourself in the cool summer terrace by the water!
- **EXPERIENCE** an adventure for all your senses!
- **DISCOVER** the legends and the mysteries within a Palace that can bring joy to over 300 travelers!




khan.chapan
+998 (99) 442-72-27
Address: Usta Olim Passage, 5,reference point, Sebzar, shopping mall Riviera






# O'zbekiston xorijliklar nigohida

## Uzbekistan in the Eyes of Foreigners

# Beatriz Matafora



# “Hayotimdagi eng ajoyib sayohat”: 45 mamlakatda bo‘lgan germaniyalik qiz O‘zbekistondagi sayohati haqida

## “The Best Trip of My Life”: A German Girl Who Has Visited 45 Countries Shares Her Travel Story about Uzbekistan

2022-yil dekabr oyida O‘zbekistonda 10 kun davomida sayohat qilish imkoniyatiga ega bo‘ldim. Men ushbu sayohatni to‘rt yildan beri tasavvur qilgan edim. Men tashrif buyurgan joylar va uchratgan odamlar menga shu qadar ijobiy ta’sir ko‘rsatishdiki, endi men O‘zbekistonning turizm salohiyatini targ‘ib etishni o‘z oldimga maqsad qilib qo‘ydim.

Mening ismim Beatriz va men Germaniyada yashayman. O‘zbekiston Yevropa fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy etayotganini eshitganimdan va bu davlatning suratlarini ko‘rganimdan keyin u yerga borishga qiziqishim uyg‘ondi. O‘tgan dekabr oyida men nihoyat O‘zbekistonga borib, yil oxiridagi ta’tilimni u yerda o‘tkazishga muvaffaq bo‘ldim. Men yolg‘iz sayohat qildim, chunki do‘stlarimning vaqtlari yo‘q edi va ular ta’tilni oilalari bilan o‘tkazishni afzal ko‘rishdi. Shunga qaramay, bu qarorga kelganimdan xursandman, chunki men mahalliy aholi bilan uchrashish va ular bilan bayramlarni nishonlash imkoniga ega bo‘ldim.

In December 2022 I had the chance to visit Uzbekistan for 10 days after envisioning this trip for four years. The places I visited and the people I met impacted me so positively that now I have made it my personal goal to promote tourism in Uzbekistan.

My name is Beatriz and I live in Germany. Ever since I heard about Uzbekistan opening visa-free for European citizens and saw pictures of this country, I became interested in visiting it. In December 2022 I was finally able to go to Uzbekistan and spend my end-of-year holidays there. I traveled alone because my friends did not have time or preferred to spend their vacations with their families. Nonetheless, this was the best decision for me because I had the chance to meet many locals and celebrate holidays with them.



Frankfurtdan Toshkentga Uzbekistan Airways'da uchib keldim. Ertasi kuni Toshkent markazini kezib, tungi poyezdda Xivaga yo'l oldim. Poyezdda ko'plab yoshlar meni xorijdan kelganimni eshitib xursand bo'lishdi va men bilan ingliz tilida gaplashmoqchi bo'lishdi. Bu samimiy mehmondo'stlik meni juda xursand qildi. Poyezd cho'lni kesib o'tayotganida uyg'onish va quyosh chiqishini ko'rish ajoyib edi. Keyingi kunlarda Xivani kezib chiqdim va sayohatchilar uchun mo'ljallangan ilova orqali o'zbekistonliklar bilan tanishdim. Ular menga shaharni ko'rsatishdi va O'zbekistondagi hayot haqida ko'proq ma'lumot berishdi.

I flew to Tashkent from Frankfurt by Uzbekistan Airways. The next day I explored the center of Tashkent and took the night train to Khiva. In the train, many young people were happy to see a foreigner and wanted to speak in English with me. This made me feel very welcomed. Waking up and seeing the sunrise while crossing the desert was an amazing feeling. During the following days I explored Khiva and met locals on an app for travelers. They showed me their city and told me more about life in Uzbekistan.







Ular meni yaqin atrofdagi qishloqda oila a'zolari bilan kechki ovqatga taklif qilishdi va bu unutilmas kecha bo'ldi. U yerda biz uchun dasturxonga turli taomlar tortildi va hatto ketayotganimizda qo'limizga noz-ne'matlar tutqazib yuborishdi.
Men ularga Germaniyadan olib kelgan shokoladni bermoqchi bo'lganimda, ular istihola qilib sovg'amni olishmadi. O'zbek xalqining mehribonligi, ochiqko'ngilligi va mehmondo'stligi meni hayratda qoldirdi. Men borgan mamlakatlarning hech birida bunaqasi bo'lmagan.

I was invited to have dinner with their family in a village nearby and it was an unforgettable experience. The family had prepared so much food for us and even gave me afterwards a package with food to take away. When I wanted to give them some chocolates from Germany, they were so surprised and did not want to take it at first. I was touched by the kindness and selflessness of Uzbek people and their hospitality. This had never happened in any of the countries I had visited before.



Men Xivadan Buxoroga yo‘l olib Xorazm qal’alariga ham kirib o‘tdim. Men cho‘lni birinchi marta ko‘rdim va u menga juda yoqdi! Yo‘l-yo‘lakay olis qishloqlardagi hayotni ko‘rish juda qiziqarli edi. Buxoroga kelib, o‘tgan yili Germaniyada 3 oy bo‘lib qaytgan o‘zbekistonliklarni uchratdim. Ular bilan mamlakatlarimiz o‘rtasidagi tafovut haqida ajoyib suhbat qurdik. Ular meni oshga taklif qilishdi va Sitorai Mohi Xosa saroyi kabi mashhur bo‘lmasada, lekin tashrif buyurishga arzigulik joylarni ko‘rsatishdi.

Buxoroda ikki kun bo‘lib, so‘ng Samarqandga yo‘l oldim. U yerda internetda tanishgan dugonam o‘z oshxonasida menga osh pishirishni ko‘rsatib berdi. Endi men bu taomni uyda tayyorlay olaman! Ertasi kuni biz Registon va Shohizinda kabi go‘zal joylarga tashrif buyurdik. Registonni ko‘rganimda ko‘zlarimga ishonmadim, chunki uni yaqindan ko‘rishni ko‘p yillardan beri orzu qilar edim. O‘sha kun men uchun unutilmas taassurotlar qoldirdi, chunki dugonamning akasi olgan suratlar juda professional va chiroyli chiqdi. Ko‘pchilik mendan sayohat davomida yonimda professional fotosuratchi bo‘lganmidi deb so‘rashadi. Men har safar “yo‘q” deb javob qaytaraman. Meni suratga olganlar haqiqatan ham iqtidorli, begonalarga yordam berishga tayyor o‘zbekistonliklar edi!



I also took a tour to impressive Khorezm fortresses on the way from Khiva to Bukhara. It was my first time in the desert and I loved it! Seeing life in remote villages along the way was really interesting. In Bukhara I met local people who had spent 3 months in Germany last year. We had a great conversation about the differences between our countries. They invited me to eat pilaf and showed me some hidden gems which are not so famous, like Sitorai Mohi-Hosa palace.

After two nights in Bukhara I headed to Samarkand, where one of my internet friends showed me how to cook pilaf in her kitchen. Now I can prepare this dish at home! The following day we visited beautiful places like the Registan and Shah-i-Zinda. At that moment I could barely believe my eyes because I had dreamt of seeing the Registan for so many years. That day left a long-lasting impression on me because my friend's brother took so many beautiful photos of me that look so professional. Many people were asking me afterwards if I had a professional photographer with me during my trip. And every time my answer was “no”. It was really just talented Uzbek people who never hesitate to help strangers!



Sayohatimni Toshkentga qaytish bilan yakunladim. Bu yerda yana ham ko'proq do'stlarimni uchratdim va ular bilan Yangi yilni birga kutib oldik. Bayram dasturxoni chiroyli bezatilganini eslayman. Do'stlarim menga sovg'a berganidan hayron bo'ldim, chunki Germaniyada Yangi yilda sovg'a berish odati yo'q. 2-yanvar kuni chiroyli suvenirlar to'la jamadonim va unutilmas xotiralar bilan Uzbekistan Airways orqali Germaniyaga qaytdim.

I finished my trip by going back to Tashkent, where I met even more friends and spent the New Year holiday with them. I remember that there was a lot of food on the table. And I was surprised that they even bought me gifts, because in Germany we do not have the tradition of giving each other presents on New Year. On January 2nd I came back to Germany by Uzbekistan Airways with my suitcase full of beautiful souvenirs and memories.



O'zbekistonga tashrifim xalqingizni mehmondo'stligi tufayli hayotimdagi eng zo'r sayohat bo'ldi. Barchasi kutganimdan ham a'lo o'tdi. Men o'zbek va rus tillarini bilmasam ham, sayohat chog'ida muloqotda muammolarga duch kelmadim. Meni bir o'zim yolg'iz sayohat qilayotganimni ko'rgan insonlar menga juda yaxshi muomalada bo'lishib, yordamlarini ayamadilar. Men barchani O'zbekistonga tashrif buyurishga chorlamoqchiman!

This was the best trip of my life thanks to Uzbek hospitality. It exceeded all my expectations. Although I do not speak Uzbek or Russian, I did not have any problems of communication during my travel. People were very respectful and helpful when they saw a woman traveling alone. I want to encourage everyone to visit Uzbekistan!

**Beatriz Matafora**
@servivodigno


12
July
IYUL
12-iyul – Butunjahon fuqaro aviatsiyasi bortkuzatuvchisi kuni!
Hurmatli Uzbekistan Airways bortkuzatuvchilari, sizlarni kasb bayramingiz bilan tabriklaymiz! Siz va hamkasblaringizga qiyin ammo juda mas'uliyatli faoliyatingizda eng samimiy tilaklarni tilaymiz.
July 12 is World Civil Aviation Flight Attendant Day!
Dear flight attendants of Uzbekistan Airways, we congratulate you on your professional holiday! We wish you and your colleagues the most sincere wishes in your difficult but very responsible work.


Uzbekistan Airways
bort taomlari milliy an'analarga muvofiq tayyorlanadi
Uzbekistan Airways inflight meals are full of traditions
MILLIY
AN'ANALARGA MUVOFIQ
Bort taomlar "Halol" sertifikatiga ega bo'lgan "Ketring" MCHJ tomonidan tayyorlanadi
HALAL FOOD CERTIFIED
HALAL
100%
Inflight meals are provided by Ketring LLC, which has Halal certification
Siz parvozdan 48 soat oldin maxsus taomga bepul buyurtma berishingiz mumkin.
You can pre-book special meals free of charge 48 hours before the departure.
+99878 140-0200
uzairways.com

# Sofi Ibbotson, Timur Bekmambetov

## va O‘zbekistonning xorijdagi turizm elchilari

## Sophie Ibbotson, Timur Bekmambetov and Other Tourism Ambassadors of Uzbekistan

“Turizm elchisi” maqomi O‘zbekiston hukumati tashabbusi bilan yaratilib, e’tirof etilgan. Mazkur nom ostida taniqli shaxslar O‘zbekiston Respublikasining betakror madaniyati, tabiati, umuman, uning nufuzini xorijiy mamlakatlarda tanitmoqda. Turizm elchisi bo‘lish taklifini qabul qilgan so‘nggi yulduzlardan biri kinorejissyor va prodyuser Timur Bekmambetov bo‘ladi.
Sizni turizm brendining boshqa elchilari bilan tanishishga va ularning O‘zbekiston imijini xorijda targ‘ib etishga qaratilgan sa’y-harakatlarini baholashga taklif qilamiz.

“Tourism ambassadors” is the original name of this initiative of the Uzbek government. Within its framework, famous people promote the amazing culture, nature and image of Uzbekistan in foreign countries. One of the latest stars to accept the offer to be the next tourism ambassador is film director and producer Timur Bekmambetov.
We suggest that you get acquainted with these other tourism brand ambassadors and evaluate their efforts to promote Uzbekistan’s image abroad:



### Sofi Ibbotson
Buyuk Britaniya

Rivojlanish bo'yicha maslahatchi, yozuvchi va Osiyo ishlari bo‘yicha Qirollik jamiyatining raisi Sofi Ibbotson 2008-yildan beri Markaziy Osiyoda faoliyat yuritmoqda. U O‘zbekistonga bag‘ishlangan sayohat qo‘llanmasining muallifi. Sofi ishtirokida O‘zbekiston turizm brendi Britaniyaning nufuzli media mukofotlari sovrindori bo‘lgan edi. Bundan tashqari, Ibbotson xorijiy nashrlarda respublikamizning tarixi, ekologiyasi va madaniyatiga oid maqolalarini muntazam chop etib boradi.

### Sophie Ibbotson
The United Kingdom

A development consultant, writer, and Chairman of the Royal Society for Asian Affairs, Sophie Ibbotson has worked in Central Asia since 2008. She is the author of a guidebook about Uzbekistan. With Sophie’s participation, Uzbekistan’s travel brand has won prestigious British media awards. Ibbotson also regularly contributes articles to foreign media on the history, ecology and culture of the country.



## Daler Yusuf
Malayziya

Malayziyalik aktyor, model va asli o‘zbekistonlik bo‘lgan Daler Yusuf 2019-yilda o‘z vatanini jahon arenasida tanitish imkoniyatini qo‘lga kiritdi. Daler O‘zbekistonga bo‘lgan muhabbatini ochiq izhor qilib, mamlakatimizning madaniy, tarixiy, me’moriy merosi haqida foto va videomateriallarni o‘zining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida joylab turadi.

## Daler Yusuf
Malaysia

Uzbekistan-born Malaysian actor and model Daler Yusuf was given the opportunity to represent his native country at the world level in 2019. Daler openly expresses his love for Uzbekistan on his social media accounts and publishes photos and videos of the country's cultural, historical and architectural heritage.

## Li Yong E
Koreya Respublikasi

Janubiy koreyalik aktrisa Li Yong E’ni o‘zbekistonlik tomoshabinlar “Saroy javohiri” serialidagi Tangem roli orqali yaxshi tanishadi. Aktrisa O‘zbekiston turizm brendi elchisi unvoni taklif qilingan ilk mashhurlardan biri hisoblanadi. 2020-yilda Li Yong E O‘zbekistonga o‘zining ishtirokidagi “Saimdan, rang-barang xotiralar” serialini bepul namoyish qilish huquqini topshirdi.

## Lee Young Ae
The Republic of Korea

South Korean actress Lee Young Ae is known to Uzbek TV viewers for her role as Tangem in the TV series “A Jewel in the Palace”. She became one of the first celebrities to be offered the title of Uzbekistan's tourism brand ambassador abroad. In 2020, Lee Young Ae gave Uzbekistan the rights to broadcast her TV series “Saimdang, Memoir of Colors” free of charge.



## Jerar Depardye
Fransiya

2019-yil noyabr oyida O‘zbekistonning turizm elchilari safi yana bir jahonga mashhur inson, fransuz aktyori Jerar Depardye bilan kengaydi. Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi matbuot xizmatining xabariga ko‘ra, Depardyening o‘zi O‘zbekiston turizm salohiyatini Fransiya va butun dunyoda targ‘ib etish istagini bildirgan.

2020-yilda Fransiya telekanalida Depardye bosh rolni ijro etgan “Mon rêve ouzbek” (“Mening o‘zbek orzuim”) hujjatli filmining premyerasi bo‘lib o‘tdi. Suratga olish ishlari oltita, ya’ni, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz va Nukus shaharlarida bo‘lib o‘tgan.

## Gérard Depardieu
France

Internationally famous French actor Gérard Depardieu joined the ranks of Uzbekistan's tourism ambassadors in November 2019. According to the press service of the State Committee for Tourism Development, Depardieu himself has expressed a desire to promote Uzbekistan's tourism potential in France and around the world.

In 2020, a French television channel premiered the documentary called “Mon rêve ouzbek” (“My Uzbek Dream”), starring Depardieu. The filming took place in six cities - Tashkent, Samarkand, Bukhara, Khiva, Termez and Nukus.



## Ritu Beri
Hindiston

Taniqli hind dizayneri Ritu Beri O‘zbekistonning turizm salohiyatini xorijda ham targ‘ib qiladi. Ritu oilasi bilan muntazam ravishda respublika shaharlari bo‘ylab sayohat qilib, musiqa, madaniyat va modaga bag‘ishlangan festivallarda qatnashadi. 2019-yil aprel oyida Dehli festivalida hindistonlik dizayner “Fergana Fantasy” nomli maxsus ikat liboslari kolleksiyasini taqdim etdi.

## Ritu Beri
India

Well-known Indian designer Ritu Beri is also promoting Uzbekistan's tourism potential abroad. Ritu regularly travels with her family to cities across the country and participates in music, culture and fashion festivals. In April 2019, the Indian designer presented a special collection of ikat clothes called “Fergana Fantasy” at a festival in Delhi.



## Xay Davidov
Isroil

Taniqli aktyor va “Xanda” teatrining badiiy rahbari Xay Davidov 2018-yilda O‘zbekistonning turizm elchisi lavozimida ish boshlagan edi. Elchi faoliyati davomida O‘zbekiston shaharlari haqida video va hujjatli filmlar suratga olgan, ular Isroil Milliy telekanalida namoyish etilgan.

Ayni paytda faoliyat ko‘rsatayotgan O‘zbekistonning mashhur turizm elchilari 17 nafarni tashkil etadi. Jumladan: Rossiyada – Yuriy Stoyanov, Qozog‘istonda – Lazzat Axanova, Avstriyada – Gertrud Tauxammer, Indoneziyada – Eko Shri Margianti, Malayziyada – Mohd Asri bin Zaynul Abidin, Singapurda – Fillip Tan, Yaponiyada – Atsuko Mayeda, Misrda – Abdulhadi al-Qasabiy, Pokistonda – Pir Muhammad Xasib ur-Rahmon va Italiyada – Gui Kanino.

## Hai Davydov
Israel

Famous actor and artistic director of the “Khanda” theatre, Hai Davydov began his duties as Uzbekistan's tourism ambassador in 2018. During his work, he has made commercials and documentaries about cities in Uzbekistan, which have been broadcast on Israel's national television channel.

There are currently 17 Uzbekistan tourism brand ambassadors. Among them: Yuri Stoyanov in Russia, Lazzat Akhanova in Kazakhstan, Gertrud Tauhammer in Austria, Eko Sri Margianti in Indonesia, Mohd Asri Bin Zainul Abidin in Malaysia, Philip Tan in Singapore, Atsuko Maeda in Japan, Abdulhadi Al-Kasabi in Egypt, Shaykh Muhammad Hassan Haseeb Ur Rehman in Pakistan and Guya Canino in Italy.



# O‘zbekiston afsonalari

## Legends of Uzbekistan

**Olimlarning fikricha, Qirqqiz 50 xonali va keng yo‘lakli katta saroy bo‘lgan**

*According to scholars, Kirk Kiz was a huge palace with 50 rooms and wide corridors*

# Oddiy xalqni himoya qilgan 40 nafar dovyurak qizlar haqidagi afsona

## The Legend of the 40 Courageous Girls who Defended the Common People

O'zbekistonda mavjud har bir tarixiy obida o'zining afsonalarga boy o'tmishiga ega. Ularda o'zbek xalqining mardligi va mehribon qalbi aks etadi. Fikrimizning yorqin isboti, Termiz shahrida joylashgan Qirqqiz qal'asi. Afsonada shunday deyilgan:

*Qachonlardir, O'zbekiston zaminini oddiy xalq ozodligi uchun kurashgan 40 nafar jangchi ayollar himoya qilgan. Bir kuni ular uzoq safardan so'ng qal'ada qolishga ahd qilishdi. Bu vaqtda shahar dushman qo'shinlari tomonidan qurshab olingan edi. Jangchilar dushmanlar bilan kurashishga va yordam kelguniga qadar qal'ani himoya qilishga kelishib oldi. Jang bir necha kun tinimsiz davom etdi. Oxir-oqibat, faqat qabila boshlig'i Guloyimgina omon qolishga muvaffaq bo'ldi.*

Every historical monument in Uzbekistan is shrouded in legends of the past. Many of them reflect the courage and the good heart of the Uzbek people. One striking example is the "Kirk Kiz" fortress located in Termez. Legend has it that:

*Once upon a time, the lands of Uzbekistan were under the protection of 40 warrior-girls who fought for the freedom of the common people. One day, after a long journey, the girls decided to stay in a fortress. At that time the city was surrounded by an enemy army. The girls decided to fight off the enemy and hold the fortress until help arrived. The battle lasted several days and nights. In the end, only Gulaim, the leader of the tribe, managed to survive.*



*Barcha jangchilaridan ayrilgan sardor qal'a darvozasini tark etib shaharni egallashga qaror qilgan dushmanni kurashga chorladi. Dushmanlarning boshlig'i Guloyimga yaqinlashib, uning ko'zlariga boqdi-yu, o'z o'limini ko'rdi. Uning jasoratiga hasad qilib, "Bu shaharning haqiqiy gavharini ko'rdim" deya o'z qo'shinini orqaga chekintirdi. Shunda Guloyim yerga yiqildi va so'nggi bora ko'rgani jangchilarning yordamga shoshilayotgani bo'ldi.*

*Ba'zi afsonalarda esa bir paytlar Qirqqizda ayollar madrasasi joylashganligi haqida aytiladi. Bu Markaziy Osiyoda juda kam uchraydigan holat. Madrasada qirq nafar qiz tarbiyalangan bo'lib, ularga Ruhayda binti Varroq ismli o'qimishli ayol rahbarlik qilgan.*

*The girl emerged from the gates of the fortress and challenged the one who had decided to capture the city in battle. The enemy leader approached Gulaim, looked into her eyes, and saw his death in their reflection. He was jealous of her courage and turned his army around, saying he had seen the real jewel of the city. Gulaim fell to the ground and the last thing she saw were warriors rushing to her aid.*

*Another, less popular legend has it that Kirk Kiz housed a madrasa for women, which was extremely rare in Central Asia. Forty girls were brought up in the madrasa, which was managed by a very educated woman named Ruhayda binti Warrok.*

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Qirqqiz eramizning IX–X-asrlarida barpo etilgan. Uning me'mori kim bo'lganligi haligacha noma'lum. Yillar suroni, shiddatli vaqt oqimi binoni ayamadi, shu bois hozir u deyarli vayronaga aylangan. Shunday bo'lsada, Qirqqiz sayyohlar va o'zbek xalqi orasida mashhur. Hammasi qal'adagi muhitga bog'liq. Obidalar o'tmishga qaytaradi, shahar shovqinidan, kundalik tashvish va muammolardan yiroqda bo'lish imkonini beradi.

According to historical information, Kirk Kiz was built in the 9th and 10th centuries AD. Who its architect was still remains a mystery. Time has not spared the building, as it is now almost completely destroyed. Nevertheless, Kirk Kiz is very popular among tourists and Uzbeks. It is the atmosphere that reigns in the fortress. The ruins take you back to the past, giving you a sense of detachment from daily worries and the hustle and bustle of city life.

Qirqqiz obidasi o'ziga xos mutlaq simmetriklikdan tashkil topgan. Arkka eltuvchi har bir yo'lakning qarama-qarshi yo'nalishga ega tomoni ham mavjud. Lekin o'tish joylarining ko'pligi tufayli qal'a devorlari orasida adashib qolish hech gap emas. Olimlarning fikricha, Qirqqiz 50 xonali va keng yo'lakli katta saroy bo'lgan.

Qal'a Termiz shahridan taxminan 3 km shimolda joylashgan. Qirqqizga siz Termiz shahrining temir yo'l vokzali orqali yoki Termiz xalqaro aeroportidan piyoda 30-40 daqiqada, avtomobilda esa 5 daqiqadan kamroq vaqt ichida yetib borishingiz mumkin.

Endilikda qal'a davlat muhofazasida bo'lib arxitektura yodgorligi va madaniy-tarixiy meros obyekti hisoblanadi. Payshanba va shanba kunlari Uzbekistan Airways aviakompaniyasi bilan sayohat qilib, Qirqqiz qal'asini hamda Termizning boshqa diqqatga sazovor joylarini o'z ko'zingiz bilan ko'rishingiz mumkin.

What makes Kirk Kiz unique is its absolute symmetry. Each archway and corridor has its counterpart on the opposite side. Despite this, it is easy to get lost within the walls of the fortress because of the large number of passageways. According to scholars, Kirk Kiz was a huge palace with 50 rooms and wide corridors.

The fortress is located about 3 km north of Termez. From the railway station of Termez city or from Termez International Airport, you can reach Kirk Kiz by foot in 30-40 minutes or by car in less than 5 minutes.

The fortress is now under state protection and is considered to be an archaeological monument and a site of cultural and historical heritage. You can see Kirk Kiz and other attractions of the city of Termez with your own eyes by traveling with Uzbekistan Airways every Thursday and Saturday.

*Maqolani rus tilida o'qish uchun QR kodni skanerlang*

*Scan the QR code to read the article in Russian*





SCAN TO OPEN OUR INSTAGRAM

**TOKU - TOSHKENTDAGI ZAMONAVIY OSIYO VA EVROPA TAOMLARI RESTORANI.**

Faqat Uzbekistan Airways yo'lovchilari uchun promo-kod bo'yicha **maxsus taklif:**

**UATOKU3SG**
promo-kodni rasmga oling

Joy band qilish uchun: +998 99 910 19 10

**TOKU IS A MODERN PAN-ASIAN AND EUROPEAN CUISINE RESTAURANT IN TASHKENT.**

**Special offer** for Uzbekistan Airways passengers only through a promo code:

**UATOKU3SG**
take a photo of the promo code

For reservation: +998 99 910 19 10

友好|食物

TOKU

TOSHKENT



WWW.ASIALUXE.UZ @ASIALUXE.TRAVEL @ASIALUXE @ASIA.LUXE.TRAVEL 71 201 77 77

ASIA LUXE
national tour operator

# DISCOVER THE WORLD WITH US

Dunyoni biz bilan kashf qiling





Uzbekistan
HELICOPTERS
O‘zbekistonning sirli va betakror maskanlarini ko‘rmagan bo‘lsangiz, vertolyotda sayr qilib, qushlar parvoz qiladigan balandlikdan go‘zal manzaralarning guvohi bo‘ling.
Zamonaviy Airbus H125, Airbus H130 va Mi-8MTV-1 vertolyotlari sizni Nukus, Buxoro, Jizzax, Samarqand va O‘zbekistonning boshqa shaharlariga o‘zingizga qulay vaqtda yetkazib qo‘yadi.
If you have not seen the mysterious and unique places of Uzbekistan, have the opportunity to see it from an aerial view in a helicopter.
Modern Airbus H125, H130 and Mi-8MTV-1 helicopters will take you to Nukus, Bukhara, Jizzakh, Samarkand and other cities of Uzbekistan at a time convenient for you.
+998 (95) 041 11 11
www.helicopters.uz



# Sevara Nazarxonning Toshkentdagi sevimli maskanlari

## Sevara Nazarkhan's Favourite Places in Tashkent

*Toshkent o'zining maftunkorligi bilan butun dunyodan sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi. Toshkent bo'ylab sayohatingiz yanada rang-barang bo'lishi uchun xonanda, bastakor, prodyuser va g'oyalar muallifi Sevara Nazarxonning sevimli hamda tez-tez tashrif buyuradigan maskanlari ro'yxatini tayyorladik. U qayerda bolalik davrlariga qaytadi, ilhom izlaydi va ko'pincha dam oladi? Ushbu savollarga Sevara Nazarxon javob beradi.*

*Tashkent is breathtaking in its beauty, and attracts travelers from all over the world. To make your journey to Tashkent more colorful, we prepared a list of the favorite places of singer, composer, producer and author of ideas – Sevara Nazarkhan. Which place takes her back to her childhood? Where does she find inspiration and take a rest most often? Sevara Nazarkhan is going to answer these questions.*



### Anhor bo'yi
### Park Anhor

Fikringizni tiniqlashtirib dam olishni istasangiz, Anhor parki bo'ylab sayr qilishdan yaxshiroq narsa yo'q. Men shahar hayotining shovqin-suronidan dam olishni xohlaganimda bu joyni tanlayman. Anhor bo'yi ayniqsa, bahor-yoz davrida go'zal. Uning yam-yashil bog'lari, mahobatli daraxtlari, gullab-yashnayotgan manzarasi barchaning birdek e'tiborini tortadi. Soyning sokin oqimi esa sizda tinchlik va osoyishtalik hissini uyg'otadi.

If you want to clear your thoughts and relax, there is nothing better than a walk through Anhor Park. I choose this place when I want take a rest from the hustle and bustle of urban life. The park is especially beautiful in the spring-summer period. Its lush green gardens, majestic trees and flowering bushes attract everyone's attention. There is a sense of peace and calmness in the sound of the stream.




# Oʻzbekiston Davlat Sanʼat muzeyi

## The State Art Museum of Uzbekistan

Oʻzbekiston Davlat Sanʼat muzeyida betakror sanʼat va madaniyat olami bilan tanishishingiz mumkin. Bu tarix va madaniyatga shoʻngʻish orqali siz uning asarlaridan chinakam ilhom olish mumkin boʻlgan oʻziga xos yagona joy. Muzey sizni qadimiy durdonalar bilan tanishtiradi va Oʻzbekistongagina xos boʻlgan goʻzallik, tarix va madaniyat guvohiga aylantiradi.

In the State Art Museum of Uzbekistan you can discover a unique world of art and culture. This is the only place of its kind where you get truly inspired by works of history and culture. The museum introduces you to ancient masterpieces and makes you a witness to the beauty, history and culture that shaped the identity of Uzbekistan.

# Oʻzbek Milliy qoʻgʻirchoq teatri

## Uzbek National Puppet Theatre

Oʻzbek Milliy qoʻgʻirchoq teatri mamlakatning anʼanaviy qoʻgʻirchoq spektakllari bilan tanishish uchun ajoyib joy. Spektakllar davomida har bir tashrif buyuruvchi, xoh kichik, xoh katta boʻlsin, madaniyat va sanʼat olamiga shoʻngʻish imkoniga ega boʻladi. Har bir spektakl bolalik davrlarimga qaytaradi va orzularimni eslatadi, bu esa meni yangi gʻoyalarni amalga oshirishga ilhomlantiradi.

The Uzbek National Puppet Theatre is the perfect place to spend the day learning about the country's traditional puppet performances. During performances, every visitor, whether a child or an adult, gets immersed in the world of culture and art. Every performance takes me back to my childhood and makes me recall my dreams, which inspire me to create new ideas.



# “Jasorat” monumenti

## Memorial Complex “Courage”

“Jasorat” monumenti – qatʼiyat va qahramonlik timsoli. Bu oʻzbek xalqining jasorati ramzi boʻlib, oldimizga qoʻyilgan har qanday toʻsiqni yengib oʻtishimiz mumkinligini eslatib turadi. Bu joy sizni hayotiy tashvishlaringizni hal qilishga ilhomlantiradi va tirishqoqlik bilan hamma narsaga erishish mumkinligini tushunishga yordam beradi.

The “Courage” monument is a symbol of strength and resilience. It symbolizes the courage of the Uzbek people and serves as a reminder that we can overcome any obstacle that might be presented to us. This place inspires you to solve life problems and helps you to understand that everything is in our power if we work hard.



# Tog‘larda paraplanda uchish
## Paragliding in the Mountains

Agar siz kuchli hissiyotlarga ishtiyoqmand bo‘lsangiz, u holda paraplanda uchish sizga yuragingiz qanday urishini his qilish imkoniyatini beradi. Erkin parvozda siz tabiat go‘zalligini butunlay boshqacha qabul qilasiz hamda ushbu daqiqalarda tog‘ manzaralari va yon atrofingizga maftun bo‘lasiz. Ushbu tuyg‘u xotirangizda uzoq vaqt saqlanib qoladi.

If you are a fan of thrills, then flying on a paraglider will give you the opportunity to feel how your heart beats. In free flight, you see the beauty of nature in a completely different way. You admire the mountain views and everything that surrounds you in those moments. That feeling will stay in your memory for a long time.



O‘zining yorqin madaniyati, ajoyib manzarasi va mehmondo‘st xalqi bilan O‘zbekiston navbatdagi sayohatingiz uchun ajoyib joy. Uzbekistan Airways bilan O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling va yorqin xotiralarga ega bo‘ling.

Uzbekistan is the perfect place for your next trip thanks to its bright culture, stunning scenery and hospitable people. Create vivid memories while traveling across the country with Uzbekistan Airways.

# OSCAR
BOUTIQUE HOTEL

**PREMIUM-CLASS HOTEL**

♦ ♦ ♦ ♦ ♦

**PREMIUM MEHMONHONA**









- **Restaurant of the author's cuisine – The Mayfair Pub**
  Mualliflik taomlar restorani – The Mayfair Pub
- **Lounge bar**
  Lounge bar
- **Gym with modern equipment**
  Sportzal zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan
- **SPA-zone: finnish sauna, hammam and massage**
  SPA zonasi: fin sauna, hammom va massaj
- **Indoor and outdoor pools**
  Yopiq va ochiq basseynlar
- **Premium Service**
  Premium xizmat ko'rsatish
- **Secure parking**
  Xavfsiz avtoturargoh

For reservation
+99878 150 66 11 | + 99878 150 11 55

148-150, Heydar Aliyev str.
Tashkent

**www.oscar-hotel.uz**
oscar.boutique_hotel
Oscar.boutique.uz

**Restaurant The Mayfair Pub**
mayfairpub







# O‘zbekistondagi go‘zallikka boy 5 sirli manzilgoh

## Five Mysterious and Beautiful Places of Uzbekistan

Dunyoda shunday sirli makonlar borki, ular haqida hanuzgacha turli afsonalar mavjud. O‘zbekistonda ham xuddi shunday manzillar talaygina. Ushbu sonda, sizni Uzbekistan Airways yo‘nalishlar tarmog‘iga kiritilgan va chinakamiga hayratlantiradigan sirli makonlar bilan tanishtiramiz:

There are still mysterious places in the world which have various legends about them. You can find many of them in Uzbekistan as well. In this issue, we will introduce you to five mysterious places which will really amaze you:



# Urung‘och ko‘li (Nefrit ko‘li)

## Urungach Lake (Nephrite Lake)

Urung‘och ko‘li (Nefrit ko‘li) – Toshkent shahridan 160 km uzoqlikda, Ugam-Chotqol milliy parki hududida joylashgan. Uyg‘ur tilidan ko‘lning nomi "Yorug‘ rangli nefrit" deya tarjima qilinadi. U dengiz sathidan 1227 metr balandda joylashgan bo‘lib, pastki kichik va yuqori katta ko‘llarga ajralgan. Uning suvi shu qadar tiniq va tozaki, bu ko‘pchilik sayyohlarni o‘ziga jalb etadi.

*Agar Urung‘och ko‘liga bir necha daqiqalarda yetib borishni istasangiz Uzbekistan Helicopters vertolyot parvozlaridan foydalaning va O‘zbekistonni o‘zgacha nigoh bilan ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ling.*

Urungach Lake (Nephrite Lake) is located 160 km from Tashkent, in the territory of the The Ugam-Chatkal National park. In Uighur, the name of the lake translates as "light-colored jade". It is located 1,227 meters above sea level and is divided into a small lower and a large upper lake. Its water is so clear and clean that it attracts many tourists.

*If you want to reach Urungach Lake in a few minutes, take advantage of Uzbekistan Helicopters flights and have the opportunity to see Uzbekistan in a way you have never seen before.*



# Tosh oʻrmon
## Stone forest

Tosh oʻrmon – Navoiy viloyatining Uchquduq tumanida joylashgan. Ushbu hududning eng sirli jihati – toshga aylangan oʻrmondir. Haligacha bu holat qanday yuzaga kelganini hech kim aniq bilmaydi. Kimdir daraxtlar qum bilan qoplanib, vaqt oʻtishi bilan toshga aylangan, desa, yana kimdir shu hududga tushgan meteorit tarkibidagi moddalar atrofdagi oʻsimliklarni toshga aylanishiga sabab boʻlgan deydi.

Ulkan Qizilqum choʻlida bundan million yillar ilgari Tetis dengizi boʻlganligi aytiladi. Hozirda bu hududning choʻl ekaniga qaramay, turli dengiz chigʻanoqlari uchrab turadi. Bu yerda shuningdek, akula qoldiqlari, hatto oʻrdakburun dinozavrning toshga aylangan suyaklari topilgan.

Stone Forest is located in the Uchkuduk district of Navoi region. The most mysterious feature of this place is the petrified forest. No one knows exactly how this happened. Some people assume that the trees were covered with sand and turned into stone over time, while others say that the substances contained in the meteorite which fell in this area caused the surrounding plants to turn into stone.

It is said that the Tethys Sea existed in the huge Kyzylkum desert millions of years ago. Despite the fact that this area is a desert, various seashells can be found there. Shells, remains of a shark, and even fossilized bones of a duck-nosed dinosaur were found there.

# Xo‘ja Gur Gur Ota
## Khoja Gur Gur Ota

Xo‘ja Gur Gur Ota dengiz sathidan 3,720 metr balandda joylashgan. Bir tomonidan keng yaylov, boshqa tarafdan esa uzun va baland jarlik joy olgan. Qadimiy dengizlarning qirg‘og‘i bo‘lgan bu hududda dinozavrlar izi ham topilgan.

Khoja Gur Gur Ota is located 3,720 meters above sea level. There is a wide meadow on one side and a long, high cliff on the other side. In this area, which used to be the coast of an ancient sea, dinosaur footprints have been found.





# Hazrat Dovud g'ori

## Cave of Saint David

Hazrat Dovud g'ori – Samarqanddan 40 km uzoqlikda, Oqsoy qishlog'ida joylashgan arxeologik yodgorlik, tabiat mo'jizasi hisoblanadi. Aytishlaricha, Hazrati Dovud va'z qilish uchun Osiyo yerlariga yuborilgan. Lekin Dovud zardushtiylar tomonidan ta'qiblarga uchrab, tog'larda yashirinishga majbur bo'ladi va Xudodan madad so'raydi. Shunda unga ilohiy kuch beriladi va u g'or toshlarini bir-biridan ajratib, ichkariga boshpana quradi. Shunday qilib Hazrati Dovud g'ori paydo bo'ladi. Hozirda, u yerga ko'tarilish uchun 1303 ta zinapoyani bosib o'tish lozim.

Hazrat Daud Cave (Cave of Saint David), an archaeological monument and a natural wonder, is located 40 km from Samarkand in Aksoy village. It is said that Saint David was sent to preach in Asia. But after being persecuted by the Zoroastrians, David was forced to hide in the mountains and ask God for help. Then he was given divine power to separate the stones of the cave and build a shelter inside. This is how the cave of Hazrat Daud appeared. An additional interesting feature of this place is that you need to climb 1,303 steps in order to reach the cave.



# Ustyurt platosi

## Ustyurt Plateau

Ustyurt platosi – Qoraqalpog'iston va Qozog'iston hududida joylashgan bu plato qadimiy meroslarga boy sanaladi. U yerdan ko'plab toshdan yasalgan qurollar, nayza uchlari, uy-xo'jalik anjomlari, tosh qabrlar topilgan. Ushbu topilmalar qadimgi massaget qabilalariga tegishli ekanligi taxmin qilinadi.

Tadqiqotchilar va sayyohlar uchun asosiy sir – bu qushlar parvoz qiladigan balandlikdan ko'rish mumkin bo'lgan "Ustyurt nayzalari". Katta hududda, yer yuzasida bir-biriga o'xshash nayzalarni kuzatish mumkin. Tadqiqotchilar haligacha bu sirning tagiga yetmaganlar: bu tabiatning 20 million yillik san'at asarimi yoki insonlar tomonidan yaratilgan go'zallikmi?

Ustyurt Plateau, which is located in the territory of Karakalpakstan and Kazakhstan, has a rich ancient heritage. Many weapons made from stone, spearheads, household utensils, and stone graves have been found there. These findings are believed to belong to the ancient Massaget tribes.

The main secret for researchers and tourists is the "Ustyurt Spears", which can best be seen from the air. Similar-looking spears can be observed on the surface here in a large area. Researchers have not yet uncovered the mystery of this place. Is this a 20-million-year-old natural work of art or a beauty created by humans?

*Ushbu maqoladagi manzilgohlarimiz shulardan iborat edi. Yuqorida tilga olingan hududlarga haligacha sayyohlar qiziqish bildirib kelmoqda. Biz boshqa sayyoralar tarkibi va xususiyatlarini o'rganishni boshlaganmiz, biroq o'z sayyoramizda qanday sirlar yashiringanligini haligacha bilmaymiz. O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling va yangi manzillarni kashf etib mamlakatning beqiyos go'zalliga guvoh bo'ling.*

*These are today's mysterious places and they are still interesting tourists today. We have begun to study the composition and properties of other planets, but we still do not know what secrets our world is hiding. Travel around Uzbekistan and witness the country's immense beauty by discovering new destinations.*

**Karomat G'afforova**




- O'zbekistondagi **BIRINCHI** Hilton Hotels & Resorts mehmonxonalar mulki
- **258**ta hashamatli xonalar, shu jumladan 50 ta lyuks va 8ta prezident apartamentlari
- Maydoni 728 kv.m va terrasasi 1000 kv.m lik Ballroom
- Konferentsiyalar va ijtimoiy tadbirlar uchun **5** ta ko'p funksiyali majlislar xonalari
- **RESTORAN VA BARLAR:** Shosh Restoran, Tumbler Bar, Lobby Lounge, City 21 Pan Osiyo Restoran & Lounge 21 qavatda
- **SALOMATLIK MARKAZI:** gidromassajli va suzish basseyn, Serenity Spa, bug 'li va quruq sauna, fitnes markazi

- **FIRST** Hilton Hotels & Resorts property in Uzbekistan
- **258** luxury rooms, including 50 Suites and 8 Presidential Suites designed in 4 unique styles
- **BALLROOM** 728 sq. m with an outdoor terrace
- 1 000 sq. m
- **5** multifunctional meeting rooms for conferences and social events
- **RESTAURANTS & BARS:** Shosh Restaurant, Tumbler Bar, Lobby Lounge, City 21 Pan Asian Restaurant & Lounge on the 21st floor
- **HEALTH CENTRE:** swimming pool with hydromassage bath, Serenity Spa, steam and dry sauna, fitness centre




@hiltontashkentcityhotel
@HiltonTashkentCity
www.tashkentcity.hilton.com

Islom Karimov ko'chasi, 2-uy, 5-blok
Toshkent, 100027, O'zbekiston
+998 71 210 88 88

Hilton
TASHKENT CITY


PILATUS
Biznes aviatsiya
bu o‘z vaqtini qadrlaydiganlar tanlovi.
Pilatus PC-24 da istalgan yo‘nalish bo‘yicha
qulay vaqtda sayohat qiling.
Business aviation is the choice of those who value their time. Travel on any route
and at any time on the Pilatus PC-24
Pilatus
PC-24
+99878 140 46 02
jet.charter@uzairways.com


Uzbekistan Airways
parvozlarida biznes-klassni tanlab, havo kemalarining
barcha qulayliklaridan bahramand bo‘ling!
Enjoy the comfort of the aircraft by choosing business
class on Uzbekistan Airways flights!
78 140 02 00

# TAX FREE

## Tax Free: sayyohlar O‘zbekistonda amalga oshirilgan xaridlaridan QQSni qanday qaytarishlari mumkin

### Tax Free: How Tourists Can Get a VAT Refund on Goods Purchased in Uzbekistan

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona va Urganch xalqaro aeroportlarida Tax Free tizimi joriy etilishi munosabati bilan chet el fuqarolari endi O‘zbekistonda xarid qilingan tovarlardan qo‘shilgan qiymat solig‘ini (keyingi o‘rinlarda — QQS) qaytarib olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.
Tax Free – xalqaro QQS qaytarish tizimi. Chet elda xaridlarni amalga oshirgan sayohatchilar tashrif buyurgan mamlakat fuqarolari emasligi sababli tovarlar va xizmatlar narxining ushbu qismini to‘lashlari shart emas. Shu sababli, sayyohlar chet el safarlarida xarid qilgan tovarlar uchun QQSni qaytarib olishlari mumkin.

Foreign nationals will now be able to receive a value added tax (VAT) refund for goods bought in Uzbekistan, thanks to the introduction of the Tax Free system at the country's five international airports - Tashkent, Samarkand, Bukhara, Fergana and Urgench.
Tax Free is an international VAT refund system. Travellers shopping abroad do not have to pay this portion of the cost of goods and services as they are not citizens of the country visited. For this reason, tourists will be able to receive a refund of value-added tax on goods bought on foreign trips.

#### Tax Free tizimiga qanday tovarlar kiradi?

Tax Free tizimi tatbiq etiladigan tovarlar – quruq mevalar, yong‘oq, parfyumeriya, pardoz, charm va mo‘ynali mahsulotlar, yog‘ochdan yasalgan buyumlar, gilam, ipak buyumlar, kiyim-kechak va aksessuarlar, poyabzal, sopol buyumlar, maishiy texnika, telefon, soat, o‘yinchoq, sport anjomlari va boshqalar. Chet el fuqarolari tovar sotib olingan kundan boshlab uch oy ichida pulni qaytarish imkoniga ega. Xaridning umumiy summasi kamida 1 million so‘m bo‘lishi kerak.

#### Which items are covered by Tax Free?

Tax Free service applies to a list of items that have been officially approved. These include dried fruit, nuts, perfumes, cosmetics, leather goods, furs, wooden products, carpets, silk products, clothing and accessories, footwear, ceramic products, household appliances, telephones, watches, toys, sports goods and others. Travelers can receive the refund within three months from the date of purchase. The total amount of the purchase must not be less than 1 million soums.

#### Keshbek qanday amalga oshiriladi?

Chet el fuqarosi App Store yoki Play Market’dan “Soliq” mobil ilovasini yuklab olib, mobil telefon raqami orqali ro‘yxatdan o‘tishi kerak. So‘ngra, “Umumiy xizmatlar” bo‘limida “Tax Free”ni tanlab, xaridlar uchun olingan cheklarning QR-kodini skanerlash darkor. Xarid summasidan QQS summasi avtomatik ravishda hisoblanadi.

#### How to get a refund?

First of all, the foreign citizen should download the “Soliq” mobile app from the App Store or Play Market, register with a mobile phone number and add an international payment system card. Then, in the “General Services” section, “Tax Free” should be selected and receipts for the goods purchased should be scanned with a QR code. The amount of the tax refund is calculated automatically.

*Maqolani rus tilida o‘qish uchun QR kodni skanerlang*

*Scan the QR code to read the article in Russian*

**Yo‘lovchi jo‘nab ketadigan kuni:**

1. Uchib ketish aeroportida parvozni amalga oshirish uchun ro‘yxatdan o‘tishi kerak;

2. Xalqaro aeroport jo‘nab ketish terminalining kirish tomonida ro‘yxatdan o‘tish zalida joylashgan Tax Free shoxobchasiga murojaat qilishi lozim;

3. Bortga chiqish talonini, mahsulot va shaxsni tasdiqlovchi hujjatni shoxobcha xodimlariga ko‘rsatishi kerak. Mahsulot ochilmagan, ishlatilmagan va yo‘lovchining yonida bo‘lishi muhim.

Shoxobcha xodimi cheklarda ko‘rsatilgan tovarlarni tekshiradi va Tax Free avtomatlashtirilgan tizim orqali chet ellik fuqarolarni ro‘yxatdan o‘tkazadi. Turli toifadagi tovarlar uchun xorijiy fuqaro QQS summasining 90 foizigacha keshbek olishi mumkin. Keshbek yo‘lovchining kartasiga rasmiylashtiriladi va ro‘yxatdan o‘tgan oydan keyingi oyning 25-kunidan keyin to‘lab beriladi.

**On the day of departure, the passenger must:**

1. Check in for the flight at the airport of departure;

2. Go to the Tax Free desk located in the check-in hall near the entrance of the departure terminal of the international airport;

3. Show the desk staff the boarding pass, the item and an identification document. It is important that the item is safe and sound, in its packaging and close to the passenger.

Desk staff will inspect the goods indicated on the receipts and register the foreigner through the automated Tax Free system. The VAT refund is 90% of the amount of VAT paid. Foreign citizens will be able to receive funds into their international bank account or bank card after the 25th of the following month from the date the goods are registered.

*Tax Free tizimiga kiritilgan tovarlarning to‘liq ro‘yxati bilan tanishish va qo‘shimcha ma’lumot olish uchun QR-kodini skanerlang*

*For a complete list of Tax Free items and more information, scan the QR code*




# Fransiya yozda yanada maftunkor bo‘ladi

## France is even more beautiful in summer

Uzbekistan Airways tomonidan haftaning har seshanba va juma kunlari bajariladigan qatnovlari orqali Parijga sayohat qiling va hayotingizni unutilmas xotiralar bilan boyiting.

Travel to Paris with Uzbekistan Airways every Tuesdays and Fridays and create unforgettable, magical memories.

Aviachiptalarni onlayn tarzda aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com sayti, shuningdek, “Uzbekistan Airways” mobil ilovasi orqali xarid qilishingiz mumkin.

You can purchase airline tickets online through the airline’s official website www.uzairways.com, as well as in the mobile application Uzbekistan Airways.




# Yo‘lovchilarning hikoyalari

## Stories of Passengers

Har qanday sayohat bu tajriba va bir umrga esda qoladigan xotiralar. Endi siz ularni Uzbekistan Airways bort jurnali sahifalarida millionlab odamlar bilan bo‘lishishingiz mumkin.

Agar sayohatlaringiz haqida qiziqarli hikoyalar bo‘lsa, ularni o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida **konkurs@uzairways.com** elektron manziliga yuboring. Barcha hikoyalar Uzbekistan Airways bort jurnali tahririyati tomonidan ko‘rib chiqiladi va ularning eng yaxshilari mualliflarning roziligi bilan bort jurnali sahifalarida chop etiladi.

Every journey is an experience and a memory to last a lifetime. Now you can share them with millions of people on the pages of Uzbekistan Airways magazine.

If you have fascinating travel stories, send them in Uzbek, Russian or English languages to **konkurs@uzairways.com**. All stories will be reviewed by Uzbekistan Airways' editorial board and the best of them will be published in the inflight magazine with the consent of the authors.



### Shahina Xayrullayeva
**Samarqand**



### Shakhina Khayrullaeva
**Samarkand**

Doimo go‘zal Samarqand bizni iliq oktyabr tongida kutib oldi. Anchadan beri Samarqand palovini tatib ko‘rishni xohlagan edik, shaharga tashrif buyurishimizning asosiy sababi ham shu. Biroq, bizning kichik sayohatimiz shaharning qoq markazi hisoblangan Registon maydoniga tashrifdan boshlandi. Do‘stlarim bilan bu yerning go‘zalligini esdalik sifatida telefonimizga suratga olishga harakat qildik. So‘ngra biz milliy taomlar barcha qoida va an’analarga mos tarzda tayyorlanadigan kafega bordik. Mazali tushlik samimiy kulgi va hikoyalar bilan yakunlandi.

Navbatdagi manzilimiz Siyob markaziy dehqon bozori bo‘ldi. U yerda biz shaharning haqiqiy milliy ruhini his etdik, Samarqand nonlariyu adras choponlarni xarid qildik. Sayohatimiz o‘zining ulug‘vorligi va go‘zalligi bilan qalbimni zabt etgan yangi “Boqiy shahar”ga tashrif bilan yakun topdi. Bu yerda Sharq tarixi bilan zamonaviy me’morchilik uyg‘unlashib ketgan desam xato bo‘lmaydi.

The always beautiful Samarkand greeted us on a warm October morning. The main reason for our arrival was the Samarkand pilaf, which we had wanted to eat for a long time. However, our little journey began with a visit to the heart of the city – the Registan. My friends and I tried to capture this beauty as a memento, taking lots of pictures on our phones. Later, we went to a local cafe where the pilaf is prepared according to all the rules and rituals. A hearty lunch ended with loud laughter and stories around the dinner table.

Next on the itinerary was Siyab Central Dehkan Market, where everyone could experience the real flavor of the city and buy Samarkand bread and traditional chapans made from adras. The journey ended with a visit to the new "Eternal City" which captivated my heart with its grandeur and beauty. I would not be mistaken to say that the history of the East is intertwined with modern architecture there.

## Gavxaroy Mirzajonova
**Istanbul**



## Gavkharoy Mirzajonova
**Istanbul**

Ushbu go‘zal zaminga birinchi tashrifim 33 yoshimda bo‘lgan. Turmush o‘rtog‘im tavallud ayyomimga sovg‘a sifatida meni va bolalarimizni ta’tilga Antaliya shahriga, keyin esa Istanbulga olib borgan.

Haqiqatan ham, Istanbul qalbimni zabt etdi. Ushbu joyning shovqinli ko‘chalari, lekin bir vaqtning o‘zida sokin masjidlari meni o‘ziga rom qilgan. Masjidlarga kirgan inson o‘zini xuddi Usmoniylar davriga tushib qolgandek his qiladi. Marmara dengizi qirg‘oqlaridagi to‘lqinlariga termilib o‘tirish esa inson ruhiyatini tinchlantiradi, hozirgi zamon so‘zi bilan aytsak “meditatsiya” vazifasini o‘taydi.

Turk oshxonasi esa alohida bir mavzu, chunki mahalliy oshxonalardagi dengiz mahsulotlaridan tayyorlanadigan taomlarning son sanog‘i yo‘q. Shirinliklarining xilma-xilligi esa hech kimni befarq qoldirmaydi. Men asosan Istanbulga kundalik hayot tashvishlaridan charchaganimda va mavsumiy xaridlar qilish kerak bo‘lganda tashrif buyuraman. Aytgancha, fevral oyidagi sayohatimda Istanbul meni o‘ziga ohanrabodek tortishiga amin bo‘ldim. Har tashrifimda u o‘zining men kashf qilmagan qirralarini ko‘rsatadi.

I was 33 years old when I visited this beautiful land for the first time. My husband took me and our children on vacation to Antalya and then to Istanbul as a gift for my birthday. In fact, the city that captured my heart was Istanbul. The noisy streets of this place, but at the same time quiet mosques, captivated me the most. A person who enters the mosques feels as if he has become a part of the Ottoman era. Looking at the sea waves on the shores of the Sea of Marmara also calms the spirit; in modern terms it is called “meditation”.

Turkish cuisine is special because of the countless local street foods and seafood dishes by the sea. The variety of sweets will not leave anyone indifferent. I mostly visit Istanbul when I feel tired of daily worries and need to do some seasonal shopping. By the way, during my trip in February, I came to the conclusion that Istanbul attracts me like a magnet, with new aspects being discovered every time I visit.



## Amirbek Shadiyev
**Mumbay va Goa**



## Amirbek Shadiev
**Mumbai and Goa**

Hindiston bo‘ylab sayohat qilish fikri menga o‘z-o‘zidan keldi. Erta tongda Nyu-Dehli aeroportiga yetib keldim, tushdan keyin transfer orqali Mumbay shahriga yetib bordim. Mumbay va uning tarixiy Kolaba tumaniga tashrif buyurishga meni “Shantaram” kitobi undadi. Kolaba bir vaqtlar Mumbayga ko‘chib kelgan yevropaliklar yashagan hudud hisoblanadi. U yerda bugungi kungacha 19-asrning ko‘plab me’moriy yodgorliklari saqlanib qolgan. Mumbay menda katta taassurot qoldirdi va eng g‘ayrioddiy his-tuyg‘ularni uyg‘otdi. Ham afzalliklari, ham kamchiliklari bilan bu ajoyib shahar xotiramda abadiy qoldi va u yerga albatta yana boraman.

Mumbayda ikki kunni o‘tkazib, Goa kurortiga otlandim. U yerga yetib kelgach, taksida deyarli 100 kilometr yo‘l bosib, shtat shimolidagi Arambol qishlog‘iga keldim.

U yerdagi Arab dengizi sohilida quyosh botishini ko‘rib, o‘zimni juda xotirjam his qildim. Hindistonga sayohat qilish fikri menda to‘satdan paydo bo‘lganiga qaramasdan, ushbu qarorga kelganimdan xursandman.

The trip to India was a spontaneous decision. After arriving at New Delhi airport in the early hours of the morning, I changed planes and was in the city of Mumbai by the afternoon. The desire to visit Mumbai, and its historic Colaba district, was spurred in me by reading the book “Shantaram”. Colaba is an area that was once home to Europeans who moved to Mumbai. There are a lot of 19th century architectural monuments that have survived to this day. Mumbai made a huge impression on me, and evoked the most extraordinary emotions. With its advantages and disadvantages I will remember this amazing city forever and will definitely return.

After two days in Mumbai, I flew to Goa. On arrival, after traveling nearly 100 kilometers by taxi, I ended up in the village of Arambol, in the north of the state. There I felt very relaxed as I watched the sunset on the shores of the Arabian Sea. Despite the fact that going to India was a spontaneous idea, I was glad that I made this decision.



**EASY BOOKING**
FLIGHTS · HOTELS · TOURS · TRANSFERS

## experience abu dhabi

Tez fursatlarda rivojlanib borayotgan Dubaydan farqli o'laroq, Abu-Dabi amirligida xotirjam oilaviy dam olish uchun barcha sharoitlar yaratilgan: keng plyajlar, bemalol sayr qilish uchun Kornish qirg'og'i va bolalar o'yin maydonchalariga ega bo'lgan yashil bog'lar.

Abu-Dabi barcha oila a'zolari uchun qiziqarli bo'ladi. Ko'ngilochar bog'lar dunyodagi eng ekstremal attraksionlarni: bolidlari 240 km/soat tezlikka erishadigan, Formula Rossa gorkalari bo'lgan Ferrari World, balandligi 10 qavatli uyga teng Yas Waterworld suv gorkasi yoki Warner Bros. World ultrazamonaviy attraksionlar va jonli shoularni taklif etadi. Bunday sharqona ertakni bolalar butun umr eslab qolishadi!

Arxitektura va san'at ixlosmandlari uchun muhtasham Shayx Zayd masjidi va Luvrning boy kolleksiyalari ayni muddao. Dubay Mall'ga bir oz yon bosayotgan Yas Mall savdo majmuasi xarid qilishni yaxshi ko'radiganlar xizmatida.

Tabiat ixlosmandlari hayvonlar ozodlikda yuradigan Sir-Bani Yas orolidagi qo'riqxonani va Abu Dabi Desert Challenge cho'l rallisi o'tkaziladigan dunyodagi eng katta qum tepaliklari joylashgan Liva vohasiga baho berishlari mumkin.



**Agar siz bularning hammasini o'z ko'zingiz bilan ko'rishni istasangiz – EASYBOOKING sizga tur tashkil qilishga yordam beradi. Biz siz uchun eng yaxshi turni tanlaymiz!**










*Narxlar e'lon qilingan vaqtda amal qiladi.

Turlarning to'liq tavsifi va narxi

easybooking.uz

1240

@easybookinguz

# САЗАНЧИК



**TOSHKENT VILOYATINING ENG GO'ZAL TOG'LARIDA**

"Amirsoy resort" hududida joylashgan "Sazanchik" restoranlar tarmog'i sizning tashrifingizni kutmoqda! Ajoyib tog' manzaralari bilan Xorazm milliy taomlari!



**CHAIN RESTAURANT "SAZANCHIK"**

LOCATED IN THE BEAUTIFUL MOUNTAINS OF CENTRAL ASIA, IN TASHKENT REGION, AMIRSOY RESORT IS WAITING FOR YOU! ENJOY THE NATIONAL CUISINE OF KHOREZM WITH AMAZING MOUNTAIN VIEWS!

## Authentic cuisine of KHOREZM is waiting for you

SAZANCHIK.AMIRSOY

Bostanlyk district, Amirsoy resort

+998 90 910 11 96

# Bolalar sayyorasi
## Kids’ planet

Hurmatli kichik yo‘lovchilar!
Havo kemasining bortida zerikib qolmasligingiz uchun biz sizga bir nechta o‘yinlarni tayyorlab qo‘ydik.

Dear young passengers!
We have prepared some games for you, so that you will not get bored on board.

## LABIRINT 1
### LABYRINTH

**SATURNGA YO‘L TOPING!**

**FIND THE RIGHT WAY TO SATURN!**






## LABIRINT 2
### LABYRINTH

**KOSMONAVTNI YER SAYYORASIGA YETIB OLISHIGA YORDAM BERING!**

**HELP THE ASTRONAUT REACH THE EARTH!**



## LABIRINT 3
### LABYRINTH

**O‘ZGA SAYYORALIK DO‘STLARIMIZGA UCHAR LIKOPCHASIGA CHIQIB OLISHIGA YO‘L KO‘RSATING!**

**HELP OUR EXTRATERRESTRIAL FRIEND TO FIND THE FLYING SAUCER!**

## LABIRINT 4
### LABYRINTH

**O‘Z SAYYORANGIZNI TANLANG**

**CHOOSE YOUR PLANET**



# Farzandingizga qiyin oʻsmirlik davridan oʻtishiga qanday yordam bera olasiz?

## How Can You Help Teenagers During a Difficult Period of Adolescence?

Oʻsmir farzand bilan muloqot qilishda eng muhimi – muzokara qilishni oʻrganish, bosim oʻtkazmaslik, kattalarning kuchliroq va aqlli ekanligini isbotlash emas, balki qoʻrquvsiz, kamsitishsiz va xafagarchiliksiz munosabatlarni oʻrnatishga harakat qilish. Farzandingiz siz bilan doʻstona munosabatda boʻlishi, sizga ishonishi, ochiq soʻzlashishdan qochmasligi uchun samarali muloqot qilishning bir nechta usullarini oʻzlashtirishingiz lozim. Ushbu usullar har qanday aloqalar uchun foydali, lekin oʻsmirlar uchun ular ayniqsa zarur.

The most important thing in communicating with a growing child is to learn to negotiate – not to press with authority, not to prove that adults are stronger and smarter, but to try to build a relationship without fear, humiliation or resentment. In order not to regularly find yourself in front of a slammed door, it is worth learning a few techniques for effective communication. They are useful for many kinds of communication, but in the case of teenagers – simply necessary.

## Farzandingiz ahvoli bilan qiziqing

### Show genuine interest

Avvallari farzandingiz oʻz hayoti haqida tinmay gapirganini eslaysizmi? Oʻsmirlarda bu xususiyat yoʻqoladi. “Hammasi yaxshi” iborasi endi barcha savollarga javob. Sizning samimiy qiziqishingiz vaziyatni oʻzgartirishga yordam beradi. Oʻsmirdan uning doʻstlari va ishlari haqida soʻrang, aniq savollar bering (lekin uni soʻroq qilmang).

Remember when your preschooler used to babble on and on about his/her life? In teenagers, this function is defeated. The catch phrase, “It's okay” is now the answer to everything. It is your genuine interest that makes the difference. Dig in, ask about friends and activities, ask follow-up questions (but do not turn it into an interrogation).



## Hadeb nasihat qilavermag

### No lecturing

Agar oʻsmir ota-onasi unga qanday yashashni oʻrgatayotganini his qilsa, unda har qanday mavzuda gaplashish istagi darhol yoʻqoladi. “Men sening yoshingda ...” va “Men senga aytgan edimku!”ga oʻxshash zerikarli nasihatlar oʻsmir siz bilan ochiq boʻlishni, muammo va muvaffaqiyatlarni baham koʻrishni toʻxtatishiga olib keladi. Maslahat berishdan oldin, farzandingizdan: “Senga mening yordamim kerakmi?” degan savolni berishni oʻylab koʻring. Ushbu iboralar moʻjizaviy taʼsirga ega hamda mojarolar sonini kamaytirishi va keskin tus olishini oldini oladi.

The desire to talk to parents about anything will instantly disappear as soon as a teenager feels they are being taught about life. Tiresome lectures, phrases “At your age . . .” and “I told you so!” will quickly cause your teenager to quit being open with you and quit sharing their problems and successes. Before giving advice, ask if your child wants to hear it: “Do you need my help?” Such phrases can do wonders and reduce the number and severity of conflicts.

## Farzandingizning shaxsiy chegaralarini hurmat qiling

### Do not impose

Farzandingiz muloqot qilishni va kechinmalari bilan boʻlishishni istamasa, bosim oʻtkazmang va talab ham qilmang. Ha, bu qiyin, chunki siz tashvishlanasiz va unga yordam berishga intilasiz. Ammo bu holatda siz sabr qiling va oʻsmirga u xohlagan vaqtda u bilan gaplashishga tayyor ekanligingizni muloyimlik bilan eslating.

If your child does not want to communicate or share deep feelings, do not push or demand. Yes, it is difficult, because you are anxious about him or her and want to help, especially since you probably know the best thing to do. But in this case, take a wait-and-see attitude and gently remind them that you are ready to talk with them whenever they want.

## Yangiliklaringiz bilan bo‘lishing

### Share your news

Farzandingiz ulg‘aymoqda, shundan kelib chiqqan holda u bilan muloqot qilishga harakat qiling. Rejalaringiz, ishdagi muammolaringiz haqida unga gapirib bering, ba’zi hayotiy vaziyatlarda ham maslahat so‘rang. O‘smir bilan ko‘plab “kattalar” mavzularini muhokama qilish nafaqat qiziqarli, balki foydali hamdir.

Accept the fact that your child is becoming an adult, and try to communicate. Tell them about your plans, about problems at work. Ask for advice on a life situation. Of course, you should not give out all your secrets or intimate information, but discussing many “adult” topics with your teenager is not only interesting, but also useful.

## Maslahat so‘rang va unga amal qiling

### Ask for advice and follow it

Farzandingizga kattalar ishlarida qatnashishiga imkon bering. Telefon tanlash va yangi kiyim sotib olish haqida fikrini biling yoki butun oila bilan ta’tilga qayerga borishni muhokama qiling. Asosiysi, o‘smir taklifi aql bovar qilmaydigan bema'ni bo‘lib ko‘rinsa ham, uni tanqid qilmaslik yoki rad etmaslik. O'smir o‘z so'zlari uchun javobgarlikni his qilsin. Uning fikri siz uchun muhimligini ko‘rsating.

Allow your child to take part in common activities that adults usually do. Ask for help to choose a phone, ask for an opinion on a new outfit, or discuss where to go on holiday as a family. Most importantly, do not criticize or reject what your teenager suggests, even if it seems like unbelievable nonsense. Make your teenager feel responsible for what he or she says. Show them that their opinion is important to you.

## O‘zingizni xotirjam tuting

### Keep your composure

Bu mojarodan g‘olib chiqishning samarali usullaridan biri. Chuqur nafas oling, o‘smirdan o‘zini nuqtai nazarini asoslashini so‘rang, u bilan xotirjam va aniq muzokaralar olib boring. Yodda tuting, o‘smirlar o‘zlarining shaxsiy chegaralarini sinab ko‘rish uchun ataylab kattalarning jig‘iga tegishadi. Agar sabr-toqatingiz tugayotganini yoki dalillaringiz yetarli emasligini sezayotgan bo‘lsangiz, shoshilmang va tin oling. O‘smirga xotirjamlik bilan keyinroq bu mavzuga qaytishingizni ayting va fursati bo‘lishi bilan albatta suhbatni oxiriga yetkazing. Ushbu usul suhbatni: “Meni aytganim bo‘ladi!” degan so‘zlar bilan yakunlashdan ko‘ra ancha samaraliroq.

*O'z his-tuyg‘ularingizni jilovlashga va bolangizning tuyg‘ularini his qilishga, o‘smirning kayfiyatini tushunishga harakat qiling, uning tanasi va ko‘zlari nima deyayotganiga diqqat qiling. Ha, siz ushbu vaziyatda tajribaliroqsiz. Shuning uchun mojaroning oldini olish yoki undan tezroq chiqib ketish uchun tajribangizni ishga soling. Shunda qiyin o‘smirlik davri unchalik hal etib bo‘lmaydigan va cheksiz bo‘lib tuyulmaydi.*

This advice is a valid way to gain a victory in a conflict. Take a deep breath, ask for a reasoned position, and negotiate with your teenager calmly and clearly. Remember that teenagers deliberately play on adults' nerves and test their personal boundaries. If you feel you are losing patience or have run out of arguments, take a time-out. Calmly tell the teenager that you are taking a break until tomorrow to think about it, and then come back to the conversation. This is many times more effective than ending the conversation by saying, “Because I said so!”

*Try to turn off your emotions and turn on empathy. Try to catch the teenager's mood; hear and see what their body and eyes are saying. Yes, you are still the most authoritative and experienced person in this situation. So apply your experience to avoid conflict, or get out of it as quickly as possible. Then the teenage crisis will not seem so intractable and endless.*



**Gulnora Hamraeva**
Family psychologist, certified gestalt therapist
Oilaviy psixolog, sertifikatlangan gestalt-terapevt

# Test “Oilaviy tarbiya uslubingiz qanday?”

## The Test: “What is Your Parenting Style”

### Sizningcha, bolalar ota-onalariga ta’sir o‘tkazadimi? 1
**Do you think children influence their parents?**

- A yo‘q, ota-onalar bolalariga ta’sir o‘tkazishi kerak;
- B ha, bolalar ota-onalarga ta’sir qiladi;
- C ehtimol bir oz;
- D men bu haqida o‘ylamaganman.

- A No, it is the parents who should influence the children.
- B Yes, children influence their parents.
- C Perhaps a little.
- D I have not thought about it.

### Bolaga shaxsiy ehtiyojlari uchun pul berish kerakmi? 2
**How do you feel about a child’s need for pocket money? In your case, it is okay to:**

- A ma’lum miqdorda pul berish va uning nimaga sarflanganligini tekshirish kerak;
- B bir hafta yoki bir oyga ma’lum miqdorda pul berish va bola bu pulni mustaqil sarflashni o‘rganishiga imkon berish kerak;
- C ma’lum miqdorda pul berish va xarajatlarni muhokama qilish kerak;
- D agar bola so‘rasa, ma’lum miqdorda pul berish kerak.

- A Give a certain amount and check how it is spent.
- B Give a certain amount for a week or a month and let the child learn how to spend it.
- C Give a fixed amount and discuss expenses.
- D Give a certain amount if he/she asks for it.

### Agar farzandingiz sizga yolg‘on gapirsa nima qilasiz? 3
**What would you do if your child lied to you? You would:**

- A o‘zimni qo‘lga olaman, agar jiddiy narsa bo‘lsa - jazolayman;
- B nima uchun bu sodir bo‘lganligini aniqlayman;
- C xafa bo‘laman;
- D hamma ham yolg‘on gapirib turadi.

- A Confront and, if it is serious, punish.
- B Find out why it happened.
- C It would make me sad.
- D Acknowledge that everybody lies.

### Agar o‘smir farzandingizning do‘sti ota-onasi uyda bo‘lmagan paytda bazmga chaqirsa, uni qo‘yib yuborasizmi? 4
**If your teenage child asks you to let him go to a party at a friend's house where his parents are absent, will you let him go?**

- A yo‘q, ota-onasiz o‘tirishlar man etiladi;
- B ha, chunki o‘smirlar muloqot qilishni va o‘z hatti-harakatlari uchun mas‘uliyatni o‘z zimmalariga olishni o‘rganadilar;
- C ha, agar do‘stlari va boshqa bolalar ham borishsa;
- D ha, xursand bo‘lsin.

- A No, no parties without parents.
- B Yes, because teenagers are learning to communicate and take responsibility for their behavior.
- C Yes, if the friend and group of people are known.
- D Yes, let him have fun.

### Farzandingiz sizdan o‘rnak olishini xohlaysizmi? 5
**Do you want your child to follow your example?**

- A ha, hamma narsada;
- B ha, agar zarur deb hisoblasa;
- C albatta, yaxshi bo‘lar edi;
- D ha, lekin u har doim hamma narsani o‘zi xohlagandek bajaradi.

- A Yes, in everything.
- B Yes, if he/she thinks that it is the right example.
- D Certainly, it is preferable.
- C Yes, but he/she will always do things his/her own way.

### Natijalar / Qaysi variantni ko‘proq tanlaganingizni aniqlang va tarbiya uslubingizni bilib oling:
**Results / Determine which option you chose most and find out your parenting style:**

- A *So‘zsiz itoatkorlikka, avtoritarizmga asoslangan tarbiya uslubi.*
- B *Hurmat, demokratiyaga asoslangan tarbiya uslubi.*
- C *Liberallik (sabrlilik, erkalatish, marhamatlilik va boshqalar) bilan ajralib turadigan tarbiya uslubi.*
- D *Befarqlik bilan ajralib turadigan tarbiya uslubi.*

- A *A parenting style based on unquestioning obedience, authoritarianism.*
- B *A parenting style based on respect and authority.*
- C *A parenting style characterized by liberality (tolerance, indulgence, leniency, etc.)*
- D *A parenting style characterized by indifference.*

# Uzbekistan Airways’ning yangi yo‘nalishlari: keyingi sayohatni qayerga rejalashtirish mumkin?

## Uzbekistan Airways' New Routes: Where to Plan Your Next Trip?

Uzbekistan Airways uchun 2023-yil yo‘nalishlar tarmog‘ining kengayishidan boshlandi. Endi qiziqarli sarguzashtlarni izlayotganlar yoki dam olish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rayotganlar uchun Pekin, Parij, Milan va boshqa shaharlarni tanlash uchun yanada ko‘proq imkoniyatlar mavjud. Ushbu tanlovda biz sizga yangi yo‘nalishlar haqida so‘zlab berib, keyingi sayohatingiz uchun shaharlarni tanlashingizda yordam beramiz.

For Uzbekistan Airways, the year 2023 has begun with the expansion of its route network. And now, for those who are currently in search of exciting adventures or are preparing for the holiday season, there are even more options, such as Beijing, Paris, Milan and other cities. In this selection, we take a look at these new destinations and tell you which city you should choose for your next trip.






Yevropaning har bir inson tashrif buyurishi kerak bo‘lgan nuqtasi – bu orzular va romantika shahri Parijdir. Bu shahar o‘zining ta’sirchan arxitekturasi va o‘ziga xos madaniyati bilan butun dunyodan mehmonlarni o‘ziga jalb qiladi. Eyfel minorasi hamda Luvrga tashrif buyurish, Sena daryosi bo‘ylab sayr qilish yoki fransuz oshxonasidan bahramand bo'lish kabi yana ko‘plab sabablar kundalik tashvishlardan chalg‘ib Parijni kashf qilish uchun yetarli hisoblanadi.

*Parijga sayohat qilmoqchi bo`lganlar uchun Uzbekistan Airways Toshkentdan Parijga to`g`ridan-to`g`ri aviaqatnovlarni yo`lga qo`ydi. Endi dunyodagi eng romantik shaharlardan biriga aviaqatnovlar haftada ikki marta - seshanba va juma kunlari amalga oshiriladi.*

A classic European city that we recommend everyone to visit is Paris, the city of dreams and romance. The city lures visitors from all over the world with its impressive architecture and vibrant culture. A visit to the Eiffel Tower and the Louvre, a stroll along the River Seine, or a taste of French cuisine are plenty of reasons to get away from daily routines and explore Paris.

*For those looking to organize a trip to Paris, Uzbekistan Airways launched direct flights from Tashkent to Paris. In addition to Milan, passengers can now also travel twice a week - on Tuesdays and Fridays - to one of the world’s most romantic cities.*




Pekin - noyob me'morchilik, ekzotik taomlar, choy marosimlari va qiziqarli madaniyat shahri. Bu yerga sayohat qilganingizda, qadimiy ibodatxonalar bilan tanishishni unutmang va Buyuk Xitoy devoriga sayohat qilish uchun vaqt ajrating.

*Uzbekistan Airways Pekinga parvozlarni tikladi. U yerga aviakompaniya muntazam aviaqatnovlarni amalga oshira boshladi. Endi siz, albatta, sayohat xaritangizda Pekinni belgilashingiz va Uzbekistan Airways bilan sayohatga tayyorgarlik ko'rishingiz mumkin.*

Beijing is a city of unique architecture, exotic food, tea ceremonies and interesting culture. Be sure to explore its ancient temples and take time to visit the Great Wall of China.

*A new city - Beijing - appeared on the map of Uzbekistan Airways, where the airline started operating regular flights. Now you can safely mark Beijing on your travel map and start preparing for your journey with Uzbekistan Airways.*




Yevropaga tashrif buyurish nafaqat ilk marta sayohat qilayotganlarning, balki malakali sayohatchilarning ham orzusi. Ushbu tilakni ro'yobga chiqarishni rejalashtirayotganlar uchun biz Yevropaning go'zal Milan shahrini kashf qilishni maslahat beramiz. Moda sanoatining poytaxti shubhasiz faqat quvonchli xotiralarni qoldiradi.

*Uzbekistan Airways haftasiga ikki marta – seshanba va juma kunlari Toshkent-Milan-Urganch yo'nalishi bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni amalga oshiradi.*

Visiting Europe is a cherished dream not only for inexperienced but also for avid travelers. For those who are planning to pursue this goal, we recommend exploring Europe from the beautiful city of Milan. The fashion capital will surely leave only happy memories behind.

*Uzbekistan Airways launched twice-weekly direct flights on Tuesdays and Fridays on the route Tashkent-Milan-Urgench.*



## Nizhny Novgorod

# NIJNIY NOVGOROD

Nijniy Novgorod qadimgi rus tarixi bilan tanishishni istaganlar uchun ajoyib joy. Ushbu shahar ajoyib tabiati, hikoyalar va afsonalarga boy xilma-xil diqqatga sazovor joylari bilan nom qozongan.

*Uzbekistan Airways Toshkent – Nijniy Novgorod – Toshkent yo'nalishi bo'yicha haftasiga ikki marta – seshanba va shanba kunlari amalga oshiriladigan to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni yo'lga qo'ydi.*

Nizhny Novgorod is a fantastic place for those who want to explore ancient Russian history. Nizhny Novgorod is surrounded by incredible nature and a variety of attractions that are steeped in myth and legend.

*Uzbekistan Airways launched direct flights from Tashkent to Nizhny Novgorod and returning to Tashkent, which are operated twice a week on Tuesdays and Saturdays.*

***Maqolani rus tilida o'qish uchun QR kodni skanerlang***

***Scan the QR code to read the article in Russian***





# Yo‘lovchilar uchun ma’lumot

## Information for Passengers






## Yukimni yo‘qotib qo‘ydim. Nima qilishim kerak?

**I Lost My Luggage. What Should I do?**

Agar siz Uzbekistan Airways aviaqatnovida parvoz qilib yukingizni yo‘qotsangiz bagaj yo‘qolgan kuniyoq yetib borgan aeroportning yuklarni qidirish bo‘yicha “Lost and Found” bo‘limiga murojaat qiling va ariza bering. Yukingiz arizangiz berilgan kundan boshlab aeroport xodimlari tomonidan 21 kun ichida qidiriladi.

If you lose your baggage while flying with Uzbekistan Airways, you can always contact the “Lost and Found” baggage search department of the airport where you arrived on the day of the loss and submit an application. Your luggage will be searched for by airport staff within 21 days from the date of applying.

Toshkent aeroportining Yukni qidirish guruhi tomonidan sizning  bagajingizni topish bo`yicha olib borayotgan ishlarining holati haqida quyidagi telefon raqami orqali ma'lumot olishingiz mumkin:

You can get information about the search process carried out by the Baggage Search Group of Tashkent Airport by calling the following phone number:

**+99878 1402914**

Yuk belgilangan vaqt ichida topilmasa, yo‘qolgan deb hisoblanadi. Bunday hollarda, siz yetkazilgan zararni qoplash uchun da’vo arizasi berishingiz mumkin. Yukni tashish shartnomasi buzilganligi haqidagi da’vo arizalar quyidagilar orqali qabul qilinadi:

If your luggage is not found within the specified time, it is considered lost. In this case, you can file a claim for damages. Claims for breach of contract of carriage are accepted here:

1. “Uzbekistan Airways” AJ vakolatxonalari, telefon raqamlari va elektron pochta manzillari quyidagi QR kod orqali keltirilgan;

1. JSC Uzbekistan Airways' representative office telephone numbers and e-mail addresses are available via a QR code:

2. “Uzbekistan Airways” AJ’ning bosh ofisi: Toshkent shahar, 100060 Amir Temur shohko‘chasi, 41-uy;

2. JSC Uzbekistan Airways Head Office: 100060, Tashkent city, Amir Temur prospect, 41;

3. Elektron manzil: **claim@uzairways.com**

3. Email address: **claim@uzairways.com**

*“Uzbekistan Airways” AJ da’vo arizasini ko‘rib chiqishi va qabul qilingan qaror to‘g‘risida yo‘lovchini ariza berilgan kundan e’tiboran 3 oy ichida xabardor qilishi lozim. Agar yukingiz ikki yoki undan ortiq aviatashuvchi tomonidan amalga oshirilgan aviaqatnovlarda yo‘qolgan bo'lsa da’vo arizangiz 6 oy ichida ko‘rib chiqilib sizga xabar qilinadi (O‘zbekiston Respublikasi Havo kodeksi 126-modda).*

*JSC Uzbekistan Airways ought to consider the claim and inform the passenger about the decision within 3 months from the date of submission of the claim. If your luggage is lost during flights operated by two or more airlines, your claim will be considered and notified to you within 6 months (Air Code of the Republic of Uzbekistan, article 126).*

# Maxsus bort taomlariga qanday buyurtma bersam bo‘ladi?

## How Can I order a Special Inflight Meal?

Uzbekistan Airways aviaqatnovlarida parvoz qiladigan har bir yo‘lovchi o‘zining tibbiy holatidan, dinidan, xohish-istaklaridan kelib chiqqan holda maxsus bort taomlariga buyurtma berishi mumkin. Bort taomnomasiga parvozdan 48 soat oldin buyurtma berish mumkin. Mazkur xizmat parvoz davomiyligi 2 soatdan ortiq bo‘lgan aviaqatnovlarda mavjud va bepul amalga oshiriladi.

Agarda siz parvoz sanasini o‘zgartirsangiz, maxsus taomga qaytadan buyurtma berishingiz kerak bo‘ladi.

Every passenger flying on Uzbekistan Airways flights can order special on-board meals based on his\her religion, wishes and medical condition.

Meals can be ordered 48 hours before the flight. This service is available and free of charge on flights with a flight duration of more than 2 hours.

If you change the departure date, you should reorder the special on-board meal too.



Maxsus taomga buyurtma berishni aviakompaniyaning rasmiy veb-sayti **www.uzairways.com** hamda “Uzbekistan Airways” mobil ilovasi, Uzbekistan Airways Sales filiallarida, aviakompaniya agentlari va aloqa markazi

**(+99878 140 02 00)**

orqali amalga oshirishingiz mumkin.

Ushbu xizmatdan onlayn tarzda foydalanish uchun rasmiy saytimizda mavjud “Maxsus oziq-ovqat” bo'limiga kiring va aviachiptangiz raqamini, familiyangizni kiriting. So‘ngra, taomlar ro‘yxatidan o‘zingizga mos taomni tanlashingiz mumkin. Aviakompaniya parhezli, glyutensiz, vegetarian, mevali, kosher, islom, hind va bolalar uchun mo‘ljallangan taom turlarini taklif qiladi.

Eslatib o‘tamiz, “Uzbekistan Airways” Aksiyadorlik jamiyatining tarkibiy tuzilmasi hisoblangan “Ketring” MChJ yo‘lovchilar uchun “Halol” sertifikatiga muvofiq barcha xizmat ko‘rsatish toifasidagi taomlarni tayyorlaydi.

Maxsus bort taomlariga buyurtma berish xizmati Uzbekistan Airways Express aviaqatnovlarida taqdim etilmaydi.

Meals can be ordered through the official website **www.uzairways.com** on the “Uzbekistan Airways” mobile app, in Uzbekistan Airways Sales branches, through airline agents and through our contact center

**(+998 78 140 02 00).**

To use this service online, go to the “Special Food” section on our official website and enter your airline ticket number and your last name. Then, you can choose the dish that you would like from the presented meal list. The airline offers the following meal options: diet, gluten-free, vegetarian, fruit, kosher, Islamic, Indian and children's.

We remind you that “Ketring” LLC, which is considered a constituent structure of Uzbekistan Airways Joint Stock Company, prepares meals of all service categories for passengers in accordance with the "Halal" certificate.

The service of ordering special in-flight meals is not provided on Uzbekistan Airways Express flights.

SIMMA HOTEL

SPA & WATER PARK



**Simma Hotel Spa & Waterpark** offers guests 110 rooms of 6 categories, a restaurant with a terrace, and a lobby lounge. In the wellness center you can find the *largest indoor water park in the country, a Turkish bath, a Finnish sauna, a well-equipped fitness center and massage rooms.*
There are three conference rooms for business meetings.

Guests can enjoy a buffet, continental or full English/Irish breakfast each morning at **Simma Restaurant**. The hotel's restaurant serves *pizza, sushi, and Turkish, European, pan-Asian, and national cuisine. Vegetarian, vegan and lactose-free options are also available on the menu.*

The reception is open 24/7. The hotel also has laundry service, prayer rooms for men and women, business center, children's playground, parking and concierge services.





**Simma Hotel Spa & Waterpark** mehmonxonasi mehmonlar uchun 6 toifadagi 110 ta xonalarni, terassali restoranni, lobbida joylashgan tamaddixonani taklif etadi. Sog'lomlashtirish markazida siz mamlakatdagi eng katta yopiq akvapark, turk hamomi, fin saunasi, yaxshi jihozlangan fitnes markazi va massaj xonalarini ko'rishingiz mumkin.
Ish uchrashuvlari uchun uchta konferensiya zallari mavjud.

Mehmonlar **Simma restoranida** har kuni ertalab bufet, kontinental yoki ingliz/irlandiya nonushtasidan bahramand bo'lishlari mumkin. Mehmonxonadagi restoranda pizza, sushi va turk, yevropa, panosiyo va milliy oshxonamizdan taomlar taqdim etiladi. Menyuda vegetarian, vegan va laktozasiz ovqatlar ham mavjud.

Qabulxona 24/7 ishlaydi. Mehmonxonada shuningdek kir yuvish xizmati, erkak va ayollar uchun namozxonalar, biznes markazi, bolalar uchun o'yingoh, avtoturargoh, konsyerj xizmatlari ham mavjud.







+998 71 207 2999, +998 99 404 4444

simma.uz

simmahotel

Simma Hotel Spa & Waterpark



AFSONA

Contemporary Uzbek restaurant

**71 252 5682**

**afsona_restaurant**

**Shevchenko 28, Toshkent**

Today, Afsona is an authentic Uzbek restaurant that has received such awards as "Top 3 restaurants " and "Visitors' choice" on Trip Advisor.

Bugungi kunda “Afsona” Trip Advisor'da “Poytaxtning top 3 eng yaxshi restoranlari” va "Visitors' choice” kabi mukofotlarga sazovor bo'lgan restoran.



Irish Pub

Authentic pub

**71 252 7842**

**irishpubtashkent**

**Shevchenko 30, Toshkent**

Irish Pub is the only authentic Irish pub in Uzbekistan, which was opened in 2005 and designed by specialists from Dublin.

Irish Pub 2005-yilda ochilgan O‘zbekistondagi yagona haqiqiy Irlandiya pabidir. Pabda haqiqiy atmosferani yaratishda Dublinlik dizaynerlar tomonidan yaratilgan interyerga e'tibor qaratilgan.

# Uzbekistan Airways parvozlari xaritasi

## Uzbekistan Airways International Flights




## Bizning flot

### Our fleet

Boeing 767
Boeing 787
Airbus 320
Airbus 321
Airbus 330

## Dunyoning ko'plab mamlakatlarida Uzbekistan Airways vakolatxonalari faoliyat olib boradi

## Representative Offices of Uzbekistan Airways Operate in Many Countries of the World

**Azerbaijan, Baku**
H.Aslanov str. 113, Baku
(+99412) 598-31-20, (+99412) 493-01-40
bak@uzairways.com

**Belarus, Minsk**
Yanki Kupala str. 25, room 319
+375173486867, +375173796908
msq@uzairways.com

**China, Beijing**
Jian Guo Men Wai 19 Citic Building 201 B, 100004, Beijing
(86-10) 65-00-64-42
bjs@uzairways.com

**China, Shanghai**
A West Terminal Bld, 3rd floor, 330, 1577 West Hebin Road, Shanghai Pudong Int. Airport
+86-21-2066-9926
sha@uzairways.com

**Georgia, Tbilisi**
Mari Brose str 2., office 19
+995-322-195-800
tbs@uzairways.com

**Germany, Frankfurt**
Hebelstrasse, 11, 60318, Frankfurt Am Main
+49-69-133-76-167 / 170 / 171 / 172
fra@uzairways.com
uzbekistan_airways_fra@t-online.de

**Great Britain, London**
13 Cambridge Court 210 Shepherds Bush Road London, W6 7NJ
+44-020-7034-2090
london@uzairways.co.uk; lon@uzairways.com

**India, Delhi**
Unit 1401, Palm Spring Plaza, Golf Course Road, Sector-54, Gurgaon, Haryana, India - 122002
+91 1242575031
del@uzairways.com

**Israel, Tel Aviv**
Kaufmann Street 2, Beit Textile Building, 12th Floor, Tel-Aviv
(972-3) 510-46-85, 510-75-46
tlv@uzairways.com; uzairways@bezeqint.net

**Japan, Tokyo**
Wakamatsu Building 7F, 3-3-6, Nihonbashi-honcho, Chuo-ku, Tokyo, 103-0023
(81-3) 6202-7590
tyo@uzairways.com

**Kazakhstan, Astana**
Beybitshilik str. 25, Orken Business centre, office 101
(+7-7172) 910-459, (+7-7172) 910-460
tse@uzairways.com

**Kazakhstan, Almaty**
Kaldayakova str., 34/29, Ayteke bi, 3-floor, office 12
+7(727)-228-04-04, +7(727)-390-00-52, +7(727)-390-00-68
ala@uzairways.com

**Korea, Seoul**
1411, 19 Royal Building-5,DANGJU-DONG, CHONGRO-KU, Seoul 110-071 Korea
+82-2-722-6856, +82-32-744-3700
sel@uzairways.com

**Kyrgyzstan, Bishkek**
107, Kievskaya str., Bishkek, 720040
(996-312) 900123, 900321
fru@uzairways.com

**Latvia, Riga**
11/2 Elizabetes str., Riga, Latvia-1010
(371) 67-32-45-63/64/65
rix@uzairways.com

**Pakistan, Lahore**
Room #4163, 4-th Floor, Lahore International Airport, Lahore, Pakistan
924236611554
lhe@uzairways.com

**Russia, Kazan**
G. Spartakovskaya str, Suvar Plaza Center, office 710
7(843) 526-54-33
kzn@uzairways.com

**Russia, Moscow**
Tverskaya 28 building 2
7(495) 230-31-82
Cash box: +7 (495) 120-84-00, +7(495)229-39-13
reception@mowhy.ru

**Russia, Novosibirsk**
Russia, Novosibirsk, Kirova str.,48, office 602
7 (383) 305-40-88
ovb@uzairways.com

**Russia, Rostov-on-Don**
264, Sholokhov av
8(863)300 38 88.
rov@uzairways.com

**Russia, St. Petersburg**
Pulkovskoye highway, 41 LIT.ZD
7-812-454-82-00
led@uzairways.com

**Saudi Arabia, Jeddah**
Skab Center – Madinah Road – P.O. BOX 18600 JEDDAH 21425 – K.S.A.
(966-2) 668-90-43, (966-2) 668-92-65
jed@uzairways.com

**Tajikistan, Dushanbe**
734024 Dushanbe, Druzhba Narodov str., 62/35, 3-rd floor.
(992 44) 610-00-67, 610-00-68
dyu@uzairways.com

**Turkey, Istanbul**
Elmadag, Cumhuriyet CD., Umaç Apt. 93, Daire 4.
+90 (212) 296-46-31, +90 (212) 296-46-32
ist@uzairways.com

**United Arab Emirates, Sharjah**
1001, Block C, Crystal Plaza Building, King Faisal Road, Sharjah, U.A.E.
+971(6)5485780
shj@uzairways.com

**USA, New-York**
400 Kelby str., 16-td floor, Fort Lee, NJ, 07024, USA
(1-201)9444474
nyc@uzairways.com; uzbekair@aol.com

**Uzbekistan, Tashkent**
+998781405387
Representative office of Uzbekistan Airways JSC at Tashkent airport. Office address at Tashkent Airport - International Departures Terminal, 1st floor
tas.repr@uzairways.com




## A320-214

37,6 m Uzunligi / Length
34,1 m Qanotlari uzunligi / Wingspan
850 km/s (km/h) Odatdagi (kreyser) tezligi / Cruising speed
3,8 ming km (thousands of km) Maksimal parvozlar uzoqligi / Range
150 O'rindiqlar soni / Passenger capacity
12 Bizness-klass / Business class
138 Iqtisodiy klass / Economy class




## A320 NEO

37,6 m Uzunligi / Length
35,80 m Qanotlari uzunligi / Wingspan
850 km/s (km/h) Odatdagi (kreyser) tezligi / Cruising speed
5 ming km (thousands of km) Maksimal parvozlar uzoqligi / Range
150 O'rindiqlar soni / Passenger capacity
12 Biznes-klass / Business class
138 Iqtisodiy klass / Economy class




## A321-200NX

44,5 m Uzunligi / Length
34,1 – 35,8 m Qanotlari uzunligi / Wingspan
840 km/s (km/h) Odatdagi (kreyser) tezligi / Cruising speed
7,4 ming km (thousands of km) Maksimal parvozlar uzoqligi / Range
188 O'rindiqlar soni / Passenger capacity
16 Biznes-klass / Business class
172 Iqtisodiy klass / Economy class




## A330-200

58,37 m Uzunligi / Length
60,3 m Qanotlari uzunligi / Wingspan
930 km/s (km/h) Odatdagi (kreyser) tezligi / Cruising speed
12 ming km (thousands of km) Maksimal parvozlar uzoqligi / Range
266 O'rindiqlar soni / Passenger capacity
18 Biznes-klass / Business class
248 Iqtisodiy klass / Economy class








## Boeing 767-300ER

54,9 m Uzunligi / Length
47,6 m Qanotlari uzunligi / Wingspan
800 km/s (km/h) Odatdagi (kreyser) tezligi / Cruising speed
9,0 ming km (thousands of km) Maksimal parvozlar uzoqligi / Range
247 O'rindiqlar soni / Passenger capacity
15 Biznes-klass / Business class
232 Iqtisodiy klass / Economy class




## Boeing 767-300ER

54,9 m Uzunligi / Length
47,6 m Qanotlari uzunligi / Wingspan
800 km/s (km/h) Odatdagi (kreyser) tezligi / Cruising speed
9,0 ming km (thousands of km) Maksimal parvozlar uzoqligi / Range
264 O'rindiqlar soni / Passenger capacity
18 Biznes-klass / Business class
246 Iqtisodiy klass / Economy class




## Boeing 787-7

56,7 m Uzunligi / Length
60,1 m Qanotlari uzunligi / Wingspan
930 km/s (km/h) Odatdagi (kreyser) tezligi / Cruising speed
12,7 ming km (thousands of km) Maksimal parvozlar uzoqligi / Range
270 O'rindiqlar soni / Passenger capacity
24 Biznes-klass / Business class
246 Iqtisodiy klass / Economy class




## Boeing 787-7

56,7 m Uzunligi / Length
60,1 m Qanotlari uzunligi / Wingspan
930 km/s (km/h) Odatdagi (kreyser) tezligi / Cruising speed
12,7 ming km (thousands of km) Maksimal parvozlar uzoqligi / Range
246 O'rindiqlar soni / Passenger capacity
24 Biznes-klass / Business class
222 Iqtisodiy klass / Economy class












- 8 m Salon uzunligi / Cabin length
- 17 m Qanotlari uzunligi / Wingspan
- 815 km/s (km/h) Odatdagi (kreyser) tezligi / Cruising speed
- 3,3 ming km (thousands of km) Maksimal parvozlar uzoqligi / Range
- 6-8 o‘rindiqlar soni / Passenger capacity
- Sariq rangli o‘rindiqlar yuklar uchun ko‘proq joy ajratish maqsadida salondan olib tashlanishi mumkin / The yellow seats can be removed from the cabin to accommodate more luggage.





## NEST ONE'DA FAROVON HAYOT ORZUSI HAQIQATGA AYLANADI

## THE DREAM OF A COMFORTABLE LIFE BECOMES A REALITY IN NEST ONE

NEST ONE – «ALL INCLUSIVE» KONSEPSIYASIGA EGA YAGONA LOYIHADIR. KO'P FUNKSIYALI MAJMUA SIZNING QULAY HAYOTINGIZ UCHUN 33 TA «NEST» ZONASINI TAKLIF QILADI.

NEST ONE IS THE ONLY PROJECT UNDER THE «ALL INCLUSIVE» CONCEPT. THE MIXED-USE COMPLEX OFFERS 33 «NEST» ZONES FOR YOUR COMFORTABLE LIFE.



BASSEYN | SWIMMING POOL



KINOTEATR | CINEMA



KUTUBXONA | LIBRARY



MAJLISLAR ZALI | CONFERENCE HALL



CHOYXONA | OUTDOOR RESTAURANT



FITNES ZAL | GYM



SKY WALK



TELESKOP MAYDONI | TELESCOPE ZONE

XBM TASHKENT CITY,
OLMAZOR KO'CHASI, 1A/1

NESTONE.UZ
71 200 2288

TASHKENT CITY IBC,
OLMAZOR STREET, 1A/1





# FAYZLI HAYOT UCHUN

FAYZLI QO'YLIQ OTA turar-joy majmuasining savdosi boshlanganini e'lon qilamiz

FDG

Fayzli
Qo'yliq Ota

998 (78) 150 55 11
www.fdg.uz